

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ZIGMUND FREYD
(1856-1939)

Mening dunyom befarqlik
ummonida suzib yuruvchi
kichik og'riq oroli!

2022

MAY

№40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz



www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
9-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-9**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-9**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 42 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

1. Pulatova Zilola Iskandarovna RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISH	7
2. Шодиев Акбар Ашурович КИЧИК ВА ЎРТА БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ УЧУН МҲҲС га ЎТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ.....	9
3. Abdullayev.S.I DAVLAT MOLIYASINI BARQARORLIGI YO'LIDA PUL-KREDIT SIYOSATINING TUTGAN O'RNI.....	11
4. Izzatulloev Faridun Narziddinzoda BUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	13
5. Xojiyev Jaxongir Dushaboyevich, Izzatulloev Faridun Narziddinzoda DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBI TAHLILI	16
6. To'rayeva Sevara Fazliddin qizi RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI VA IQTISODIYOT RAQAMLASHTIRIL- ISHINING HAYOTIMIZGA TA'SIRI.....	19
7. Adxamjonov Shoxbozbek Bobirjon o'g'li JAHON MAMLAKATLARI MOLIYA TIZIMIDA ISLOM BANKLARI O'ZIGA XOS XUSIYATLARI.....	21
8. Ш.Тоғайниязов ҲУДУДЛАРНИ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДА БЮДЖЕТ СОЛИҚ СИЁСАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	23
9. Ш.Тоғайниязов БЮДЖЕТ СОЛИҚ СИЁСАТИ ЖАРАЁНИДА МАҲАЛЛИЙ КЕНГАШЛАРНИНГ РОЛИНИ КУЧАЙТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	26
10. Турғунов Саиджон Зокиржон ўғли КБТ СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ИННОВАЦИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ВА ИННОВАЦИОН МАРКЕТИНГДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	29
11. Имомов Х.Х., Жумаев А.Н. ДАВЛАТ ҚАРЗЛАРИНИ ВУЖУДГА КЕЛИШИНИНГ ИҚТИСОДИЁТ УЧУН ТАЪСИРИ.....	31
12. Шавкат Болтаев ЗАМОНАВИЙ ШАРОИТЛАРДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ТЕЖАМКОРЛИККА ЭРИШИШНИНГ ЗАРУРАТИ.....	33
13. Турғунов Саиджон Зокиржон ўғли КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ҲОЛАТИ.....	35
14. Abdusamatova Shaxodat Hojiakbar qizi, Vafqulova Gavharbegim To'lqin qizi MAMLAKATIMIZDA ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	38
15. Galiyev Tohir Fazliddinovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI: ISTIQBOLLAR VA XAVFLAR.....	40



ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISH

Pulatova Zilola Iskandarovna,
TDIU «Marketing» kafedrası
2 bosqich magistranti
Telefon: +998977540112
zilola0328@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishning asosiy masalalari o'rganilgan. Bu jarayondagi mavjud qator muammolar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish yuzasidan taklif va xulosalar shakillantirilgan.

KALIT SO'ZLAR: Bank, sms banking, masofaviy bank xizmatlari, internet banking, innovatsiya, axborot texnologiyalari.

ANNOTATION: The article examines the main issues of remote banking services. Existing problems in the process have been identified and suggestions and conclusions have been made to address them.

KEYWORDS: banking, remote banking services, sms banking, internet banking, innovation, information technology.

So'ngi yillarda O'zbekistonda tijorat banklari e'tiborini bank-mijoz yoki mobil ilovalar kabi masofaviy xizmat ko'rsatish kanallariga qaratgan holda o'z biznesini mijozlarga xizmat ko'rsatishni soddalashtirish yo'nalishida faol ravishda o'zgartirmoqda.

Bank tizimini isloh qilish bo'yicha Prezidentimizning “2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining, bank tizimini isloh qilish strategiyasi” to'g'risidagi farmoni qabul qilinib, mazkur farmon [1] ijrosi doirasida: Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, xalqaro moliya tashkilotlari hamda “PWC”, “KPMG”, “Deloitte”, va “McKinsey & company” kabi xalqaro konsalting kompaniyalari banklarni transformatsiya qilish jarayonlariga jalb etildi [2].

O'zbekiston bank tizimini so'ngi to'rt yil mobaynida rivojlanish natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak bir qancha ijobiy, tub o'zgarishlarni shu bilan birga rivojlanishini tasdiqlovchi ko'rsatkichlarning guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, 2018-2020-yillarda kredit tashkilotlari soni 55 taga yetdi, shuningdek 4 ta tijorat banklari (Poytaxt Bank, Tenge Bank, TBC Bank, Anor Bank), 33 ta mikrokredit tashkilotlari va 18 ta lombardlar tashkil etildi. 2021-yil 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari aktivlari 366.1 trln. so'mga yetdi va 2017-yilga nisbatan 120 foizga o'sdi. Ushbu davrda o'rtacha yillik real o'sish (devalivatsiyani hisobga olmagan holda) 24.1 foizni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.


Valyuta siyosatining liberallashtirilishi natijasida bank sektorida dollarlashuv darajasi sezilarli darajada pasaydi. Xususan, 2017-yilda banklarning xorijiy valyutadagi aktivlarining jami aktivlardagi ulushi 64 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda ushbu ko'rsatgich 50.2 foizgacha kamaydi. Shuningdek, ushbu davrda xorijiy valyutadagi ulushi 62.3 foizdan 49.9 foizgacha, xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi esa 48.4 foizdan, 43.1 foizgacha kamaydi. Shuningdek, ushbu davrda xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi 62.3 foizdan 49.9 foizgacha xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi esa 48.4 foizdan 43.1 foizgacha kamaydi.

Kreditlar real o'sishi esa yiliga o'rtacha 38.6 foizni tashkil etdi. 2021-yil 1 yanvar holatiga ko'ra iqtisodiyotga berilgan kreditlarning umumiy hajmi 277 trln. so'mni tashkil etdi va 2017-yilga nisbatan 150 foizga oshdi. Mazkur davrda depozitlarning o'rtacha yillik real o'sish sur'ati 18.5 foizni tashkil etgan [3].

Hozirgi kunda tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta'minlashning eng samarali usullaridan biri sifatida mijozlarning bankka ishonchini qozonish va mijozlar uchun barcha qulayliklar asosida



xizmatlar ko'rsatish tizimini yaratish hamda, xizmatlar turi, sifati va tezkorligini oshirish sanaladi. Respublikamizda 2019-yil davomida ikkita milliy (“Humo” hamda “Uzcard”) to'lov tizimlarining Visa, Mastercard, CHina Union Pay hamda Mir xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyasi samarali amalga oshirildi. Bu esa, ushbu xalqaro to'lov tizimlari kartalari foydalanuvchilari, ya'ni mamlakatimizga tashrif buyuruvchi turistlar va mehmonlar uchun keng shart-sharoitlar yaratgan holda “Humo” hamda “Uzcard” to'lov infratuzilmasi (bankomatlar va to'lov terminallari tarmog'i) orqali milliy valyutada to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.



1-rasm. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilarning turlari bo'yicha dinamikasi (ming donada²⁰)

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni to'lash, online konvertatsiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanilmoqda. O'z navbatida, korxonalar va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni tasarruf etish, to'lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag'lari sotib olish, (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqqi hamda unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar yaratildi.

Bank mijozlarining yangi bank xizmatlaridan foydalanishlarini kengaytirish uchun tijorat banklari bank plastik kartochkalari bo'yicha yangi xizmat turlarini joriy qilishlari maqsadga muvofiq.

1. Bank plastik kartochkalari foydalanuvchilarining mablag'lari but saqlanishi va to'lov havfsizligini ta'minlash zarur.
2. Jismoniy shaxslar ularga ochilgan bank hisobvaraqlarini mobil ilovalar yoki veb-saydlar orqali to'g'ridan-to'g'ri boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.
3. To'lov terminallari shuningdek xalqaro hamda mahalliy bank plastik kartochkalari orqali uzluksiz to'lovlarni qabul qilish imkonini beruvchi dasturiy taminotni joriy etish lozim.
4. Savdo va pul xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subektlarining to'lov terminallariga talabini doimiy ravishda o'rganib borish maqsadga muvofiq degan taklifni bildiraman.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025”-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi farmoni. ПФ-5992-son.12.05.2020 y. <https://lex.uz/docs/4811025>.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Raisi M.B. Nurmuratovning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-yilgi xisoboti to'g'risidagi masala yuzasidan Oliy Majlis Senatining Yalpi majlisidagi ma'ruzasi. https://cbu.uz/oz/press_center/reports/480144/.
3. Xamidov X., Iqtisodiy tadqiqotlar va isloxotlar markazi 2017-2020-yillarda O'zbekiston bank-moliya sektori rivojlanish dinamikasi sharhi.



КИЧИК ВА ЎРТА БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ УЧУН МҲХС ГА ЎТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ

Шодиев Акбар Ашурович
ТДИУ тадқиқотчиси

Аннотация. Мақолада МҲХС га ўтиш жараёнига бевосита боғлиқ бўлган қабул қилинган қарорлар, молиявий ҳисоботларни тузишда юзага келадиган муаммолар келтириб ўтилган. Иқтисодийетимизда фаолият олиб бораётган йирик бизнес субъектларининг МҲХСга ўтишларига қаратилган “Йўл харитаси” ва унинг мазмун-моҳияти, уларда анъанавий тарзда амалга ошириб келинган ҳисоб тизими тубдан қайта кўриб чиқилиши зарурлиги таъкидланган.

Таянч сўзлар: ҳаққоний қиймат, активларнинг қадрсизланиши, Тармоқ орқали ўзаро фойдали ҳамкорлик дастури, Халқаро молиявий ҳисобот бўйича диплом ва бошқалар.

Мамлакатимиз иқтисодийетининг изчиллик билан ривожланиб бориши молия бозорида корхоналар фаолиятинингнинг янги мосланувчан механизмларини пайдо бўлишига олиб келади. Ўз навбатида кичик ва ўрта корхоналарга хорижий кредит линияларидан сармояларнинг кириб келиши ҳамда янги бозорлар очилишини, ҳисоб тизимининг такомиллашувини тақоза этади. Яна бир ўзгаришлардан бири кичик ва ўрта корхоналарнинг молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларидан кенг фойдаланиши юзага келади[1]. Бироқ, кичик корхоналарда халқаро стандартларни қўллаш бир қанча босқичларни талаб этади. Улар тахминан қуйидаги кетма-кетликдан иборат бўлади:

1. Молиявий ҳисоботларни трансформация жараёнида зарур бўладиган ахборот манбаларини аниқлаш ва таҳлилга тайёрлаш;
2. Трансформация жараёнида акс эттирилиши талаб қилинадиган жадвалларни ишлаб чиқиш;
3. Трансформация босқичида жадваллардаги маълумотларни узатиш тартиб-қоидаларини аниқлаб олиш;
4. Маълумотларни ўзгартириш, тузатиш киритиш, жадвалларни тўлдириш ва маълумотларни шархлаш талаб қилинади;
5. Солиқ тўловларини ҳисоблаш, трансформация харажатларини аниқлаш, резервларни тўплаш;
6. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига мувофиқ ҳисобот шаклларини яратиш ва бошқалар[3].

Бироқ, кичик корхоналарнинг молиявий ҳисоботларини яратишда ошкор қилиниши талаб этилмайдиган масалалар мавжуд. Шу туфайли ҳам кичик корхоналарда бир акцияга тўғри келадиган даромад миқдори, суғурта, реализация қилинадиган активлар, оралик молиявий ҳисоботлар очиб берилиши шарт эмас. Амортизацияланган қиймат бўйича ҳисобга олинган мулклар инвентаризациядан ўтказилиши зарур. Лекин кичик корхоналар учун МҲХС Ҳисоб ишларини соддалаштиришни кўзда тутаяди. Шу сабабли ҳам кичик корхоналар 39-Кичик ва ўрта корхоналар учун МҲХСни тўлиқ қўллашлари мумкин.

Кичик ва ўрта корхоналар учун мўлжалланган халқаро стандарт ҳисобот стандартларини биринчи бор қўллаш юзасидан ўтиш даври тартиб-қоидаларини белгилаб беради. Демак, кичик ва ўрта корхоналар учун МҲХС и тўлиқ МҲХСга қараганда соддалаштирилган ҳамда йирик корхоналарга қўйиладиган талабларни четлаб ўтади. Кичик ва ўрта корхоналар учун МҲХС кичик корхоналарни аниқлаш заруриятини белгилайди. Бироқ, бугунги кунда кичик корхоналарга аниқ бир таъриф мавжуд эмас. Иқтисодийетнинг турли ривожланиш босқичларида кичик корхоналарнинг барча соҳаларини ўз ичига оладиган(ўзида мужассам этадиган) таъриф берилмаган. Кўпчилик ҳолларда кичик ва ўрта корхоналарнинг ўзига хос хусусиятлари ишчилар сони, активларининг миқдори, ҳисобот давридаги айланмалар миқдори ҳажмига асосланади[2]. Аммо бу кўрсаткичларни дунё мамлакатлари ўртасида солиштириш имкони йўқ. Кичик корхоналар учун МҲХС лари кўпчилик манфаатларига эга бўлмаган, акциялари очик сотилмайдиган субъектлар учун мўлжалланган. Бизнинг фикримизча, кичик корхоналар учун мўлжалланган МҲХС ларини қайси корхоналар қўллашларини қонун чиқарувчи органлар томонидан белгиланиши лозим. Ушбу



қонунчиликка кўра турли худудларда субъектларни кичик корхона деб ҳисобланиши учун зарурий мезонлар қатъий белгиланиши лозим. Хўжалик юритувчи субъектлар кичик корхоналар учун мўлжалланган МХХС лари талабларига риоя қиладиган бўлса, ушбу стандартни тўлалигича қабул қилишлари шарт. Субъект бир вақтнинг ўзида кичик корхоналар учун МХХС ва тўлиқ МХХС дан фойдаланиши мумкин эмас. Агар кичик корхоналар ўз акцияларини капитал бозорларида жойлаштиришни кўзласа, бундай корхоналар учун МХХС га ўтиш қийинлашади.

Кичик ва ўрта корхоналар учун МХХС лари тўлиқ МХХС ларига қараганда соддарок тузилган бўлиб, кичик ва ўрта корхоналар учун бухгалтерия ҳисобидан кўзланган мақсадни таъминлашга ва ҳисобот харажатларини камайтиришга йўналтирилган. Лекин кичик ва ўрта корхоналар учун мўлжалланган стандарт мустақил яратилган эмас, у тўлиқ МХХС ларнинг ўзгартирилган вариантыдир[7]. Ушбу стандартнинг талаблари тан олинган тушунча ва тамойилларга асосланади. Агарда кичик корхоналар ўз акцияларини очиқ бозорларда сотишга қарор қилса, тўлиқ МХХС ўтишига имкон яратади. Кичик корхоналарнинг асосий мақсади маҳаллий бозорларда ўз ўрнини сақлашга қаратилган[5]. Бундай корхоналарнинг бухгалтерия тизими асосан банк билан ишлашга қаратилади.

Хулоса қиладиган бўлсак, кичик ва ўрта корхоналар учун МХХСни тайёрлашда соддалаштиришларнинг мавжудлиги фақатгина харажатларни камайтиришга эмас, балки молиявий жихатларни ҳам ҳисобга олишга замин яратади. Кичик ва ўрта корхоналар учун МХХС ни қўллаш корхоналарнинг ўзигагина эмас, балки кўпчилик сармоядорлар учун ҳам фойдали механизмга айланади. Шунингдек, молия бозорига ижобий таъсир ўтказиб, пировардида рақобат муҳитини шаклланишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сонли Қарори.

2. Молиявий ҳисобнинг халқаро стандартлари. Ўқув қўлланма. А.Н. Тўраев - Т.: ТМИ, 2021.

3. Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари. Таржима. А.Ризақулов, Б.Ҳасанов, А.Усанов, З.Маматов. Т.: - 2004.

4. Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари. Жалолова Д - Т.: Молия институти, 2004.

5. Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарилари.-Т., “Ўзбекистон иқтисодчилар уюшмаси”, 1999.–1-2 қисмлар.

6. 12. Бухгалтерский учет по международным стандартам финансовой отчетности. Учеб. пос. I, II том/ - Т.: “ИЛМ ФАН РИВОЖ”, 2015.-278 с.

7. International Accounting Standards. The ICA in England and Wales. London, 1989.

8. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Мавжуд ҳолат ва истиқбол нималарда намоён бўлади? Илмий мақола. А. Каримов, И. Кўзиев, М. Рахимов, 2020.05.12



DAVLAT MOLIVASINI BARQARORLIGI YO‘LIDA PUL-KREDIT SIYOSATINING TUTGAN O‘RNI

Abdullayev.S.I

Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti
Davlat moliyasi va Xalqaro moliya
magistratura mutaxassisligi
II bosqich magistranti

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini yanada barqarorligini ta‘minlash yo‘lida kun sayin harakatlar soni ortib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda moliya, pul muomalasi va kredit masalasiga katta e‘tibor qaratilib, doimiy ravishda dolzarb masala sifatida qaralyapti. Moliya sohasida pul muomalasi va kredit munosabatlarini takomillashtirib borish haqidagi fikr-mulohazalar ushbu tezisning mohiyati bo‘lib, yana bunda davlat moliyasini barqarorligi yo‘lida Markaziy bankni pul-kredit siyosati haqidagi ahamiyatli jihatlariga diqqat qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Moliya vazirligi. Markaziy bank. Pul-kredit siyosati. Monitar siyosat. Valyuta siyosati. Qayta moliyalashtirish stafkasi. Infilatsiya darajasi.

Bugungi kunda zamonaviy rivoj topgan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatining asosiy tarkibiy qismi sifatida tan olinadigan iqtisodiy siyosat bu — **pul-kredit siyosati** sanaladi. Shu boisdan ham birinchi navbatda pul-kredit siyosatini izohiga e‘tibor bersak. Markaziy bankning pul-kredit siyosati - Bu pul tizimining faoliyatini, kredit kapitali bozorini tartibga soluvchi hukumat chora-tadbirlari to‘plami, bir qator umumiy iqtisodiy maqsadlarga erishish maqsadida: narxlarni, stavkalarni barqarorlashtirish, pul birligini mustahkamlash tushuniladi. **Pul-kredit siyosati** pul muomalasi va kredit sohasida olib boriladigan bosh yo‘l sifatida ham, davlatning iqtisodiy jihatdan barqaror bo‘lishi yo‘lida ham, uning samarali faoliyatini ta‘minlashda ham, pul tizimi bilan bog‘liq jarayonning zaruriy darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlar jamlanmasi misolida ham yuqori ahamiyat kasb etadi. Pul-kredit siyosati yordamida muomalada turgan pul massasini qisqartirish imkoniyati va uni ko‘paytirish imkoniyati ham paydo bo‘ladi, inflyatsiyani pastlashishiga ham erishish mumkin.

Respublikamiz iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib, malakali makroiqtisodiy boshqaruvning ahamiyatini yuksaltirishda pul-kredit siyosati asosiy tarkib sifatida o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlari hamda mamlakatimizning Yevro Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo bo‘lishi va Umumjahon savdo tashkilotlari bilan aloqlani yo‘lga qo‘yib, faol munosabatlarni bevosita amalga oshirilibotgan pul-kredit siyosatiga bog‘liq deya olamiz. Iqtisodiy-moliyaviy inqirozning har qaysiki davlat miqyosida ko‘lami va albatta, oqibatlar qay ko‘rinishda aks etishi bir necha omillar sababli bo‘ladi. Ya‘ni bu o‘rinda eng avvalo, mazkur davlatning moliya-valyuta tizimining mustahkam poydevori, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi hamda likvidligi (to‘lov imkoniga), ularning xorijiy va korporativ bank tuzilmalariga qaramlik darajasi, shular jumlasida, oltin-valyuta zahirasiining hajmiy miqdori, chet eldan olingan kreditlarni qayta olish qobiliyati va pirovard natijada — mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diverfikatsiya va raqobatga bardosh bera olish darajasi, imkoniyatiga juda bog‘liqdir.

Davlatimizning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda pul-kredit siyosatiga o‘rinli murojaat etish kelajakda ko‘pgina yutuqlarga asos bo‘ladi. Masalan, Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning ushbu usulida narxlar barqarorligini ta‘minlash maqsadida pul agregatlari, rezerv pullar va pul massasi hajmlari o‘zgarishini nazorat qilish nazarda tutiladi. Pul massasi o‘zgarishi omillari asosida tahlili, pul massasi o‘sishi turli davrlarda oltin-valyuta zaxiralarining oshishi hamda iqtisodiyotni kreditlash hajmlarining kengaytirish hisobiga ta‘minlanganligini ko‘rsatmoqda. Valyuta kursi shakllanishida tamomila yangi yondashuvdan foydalanilishi, o‘z navbatida, Markaziy bankning asosiy e‘tiborini ichki bozordagi narxlar barqarorligiga qaratish asnosida pul-kredit siyosatini takomillashtirish imkoniyatini beradi. Moliyaviy vostichalikni rivojlantirish, xususiy banklar bilan bog‘liq faoliyatning ko‘lamini kengaytirilishi natijasida uning samara keltiruvchi tomonini oshirishga muvaffaq bo‘lishimiz mumkin. Shu sababdan ham pul-kredit siyosati mamlakat moliyasi barqarorligi yo‘lida yuqori ahamiyat kasb etadi. Pul-kredit siyosati - hukumatning pul



muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bo‘sh yo‘li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta‘minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlari sanalib Davlat moliyasini barqarorligini ta‘minlashda pul-kredit siyosati. Davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, odatda, uni Markaziy bank amalga oshiradi. Muomaladagi ortiqcha pul massasi qisqartiriladi yoki ko‘paytiriladi, inflyasiyani pasaytirish chora-tadbirlari ko‘rib chiqiladi. Markaziy bank olib borishda pul bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri — o‘zining boshqaruv vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta‘sir o‘tkazishi mumkin. Shu boisdan bevosita — moliyaviy institutlardagi moliyaviy aktivlar narxlari (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqarish orqali olib boriladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit kurinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxlari va hajmini nazorat qiladi. Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslariga bozor mexanizmlari (majburiy zaxira talablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta‘sir etiladi. Markaziy bank foydalanadigan vositalarning har biri foiz stavkalarining o‘shishiga, kreditlash va qarz olish hajmini kamaytirishga, lozim bo‘lganda foiz stavkalarini oshirishga yoki, aksincha, tushirishga xizmat qiladi. Ochiq bozordagi operatsiyalar, majburiy eng kam zaxiralarning bo‘lishi, hisobga olish siyosati, valyuta siyosati pul-kredit siyosati asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Pul-kredit siyosatining yuqoridagi barcha vositalari bilvosita (iqtisodiy) ta‘sir o‘tkazish usullari bilan bog‘liq edi. Pulni tartibga solishning ushbu umumiy usullaridan tashqari, butun bank kreditlarning aniq turlarini tartibga solish uchun mo‘ljallangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri (ma‘muriy) usullardan ham foydalanadi. Pul-kredit siyosatining ijobiy va salbiy tomonlari bor. Kuchli tomonlarga tezkorlik va moslashuvchanlik kiradi, bu moliya siyosatiga qaraganda siyosiy bosimga kamroq bog‘liq. Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda muammolar tsiklik assimetriya bilan vujudga keladi. Pul muomalasi tezligining teskari yo‘nalishi o‘zgarishi natijasida pul-kredit siyosatining samaradorligi ham pasayishi mumkin. Masalan, iste‘molchilar ehtiyojlari uchun bank kreditlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklanishi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash kerakki, bugungi kunda pul-kredit siyosati mamlakatimizning iqtisodiy tarkibiy qismi sifatida uning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan yuksalishida, toboro shakllanishida hamda barqaror ta‘minotida izchil xizmat qiladi. Pul-kredit siyosati xizmatining natijalarini xalqimizning farovon turmush tarzi-yu o‘zini o‘zi boshqarish va ta‘minlashdek faoliyati kabilarda ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Hamda davlat moliyasi takomillashuvidagi o‘rinli ishtiroki sabab xalqning farovonligi uchun, obod turmushga sazovor bo‘lish uchun ham katta imkoniyatlar eshigini ochilishida ham o‘zini namoyon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мадина Гайфулина./специалист департамента. Оценка эффективности операционного механизма денежно-кредитной политики. Тошкент. 2021
2. https://banki.ru/wikibank/denejno-kreditnaya_politika/
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pul-kredit_siyosati



BUDJET MABLAG‘LARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Izzatulloev Faridun Narziddinzoda
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
MGF-02 Magistratura 2-kurs talabasi

Anotatsiya

Ushbu ilmiy tezisdavlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanish yo‘llari, mahalliy budjetning harajatlarini boshqarilish, turli darajadagi budjet bo‘g‘inlari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, shuningdek, davlat budjeti xarajatlari takribida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarining tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar

Davlat budjeti, budjet xarajatlari, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo‘l tutishi davrida mahalliy budjetlarning Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli yanada oshmoqda. Respublikamizda olib borilayotgan islohotning chuqurlashishi mahalliy budjetlarni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini yanada oshirib, moliya-budjet sohasidagi huquqlarini kengaytirish va ularning moliyaviy bazasini mustahkamlashni talab qiladi. Ushbu iqtisodiy islohotlarida budjet ijrosi, uni bajarilishini qat‘iy ta‘minlash, mahalliy budjetlar xarajatlarini boshqarishda budjetlararo vakolatlarni taqsimlash tartibini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda echimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

“Davlatimiz rahbari Mirziyoyev Shavkat Miromonovich Oliy Majlisga Murojaatnomasida ijtimoiy masalalarga ham alohida ahamiyat qaratdi:”¹... Ijtimoiy himoyaga muhtoj opa-singillarimizni Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida 5 ta muhim tashabbus doirasida qisqa o‘quv kurslarida o‘qitish tashkil etiladi. Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha yagona ko‘rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerak.

O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi “O‘zbekiston yoshlari – 2025” konsepsiyasini ishlab chiqishi, unda ma‘naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishning amaliy chora-tadbirlari belgilanishi lozim.

Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlashda hech kim chetda turmasligi, “O‘z bolangizni, o‘z uyingizni, o‘z Vataningizni ko‘z qorachig‘idek asrang!” degan shior odamlarimiz qalbidan chuqur joy olishi zarur. Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning ma‘naviy va ma‘rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga ega. Shu bois, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish – o‘ta sharafligi vazifa.

Budjet ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, budjetdan mablag‘ bilan ta‘minlashni takomillashtirish, hamda mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanishni ta‘minlash mahalliy budjetlar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish esa Mahalliy budjetlarga tegishli vakolotlar berish, ularni mustaqilligini oshirish orqali erishish mumkin. Mahalliy budjetlarning harajatlarini boshqarilishida byudjetlararo vakolotlar muammolari ushbu magistrlik dissertatsiyasi ham mahalliy budjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, budjet xarajatlarini boshqarishda budjetlararo vakolotlarni va ularni mustaqilligini ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Davlat budjeti moliya tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida mamlakatning asosiy moliya resursini tashkil etuvchi va davlat foydalanuvchi umumdavlat pul jamg‘armasi hisoblanadi. U mamlakatni boshqarishda ishtirok etadigan boshqa moliyaviy vositalar ichida eng muhimi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi bo‘lib,

1 Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiya kunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilganmajlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017 -104 b.



amaldagi qonunchilikka asosan budjet xarajatlari ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llabquvvatlash xarajatlari, iqtisodiyotga xarajatlari, boshqaruv xarajatlari, mudofaa xarajatlari va davlat qarzigga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarga bo‘linadi.

Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy guruhlariga ajratilishi davlatning toifasi va u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarni o‘zida aks ettiradi. Budjet xarajatlarini sarflashga qaratilgan siyosat esa budjet siyosati deb yuritiladi.¹

O‘tgan 2020 yilda byudjet siyosatini amalga oshirishda budjet mabalag‘laridan qanchalik samarali foydalanilganligini tahlil qiladigan bo‘lsak, davlat budjeti xarajatlari aniqlangan reja ko‘rsatkichlariga nisbatan 104,0 foiz yoki 118 008,7 mlrd. so‘mga bajarildi. Davlat budjeti xarajatlari takribida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlarining ulushi yuqori bo‘lib, 59 416,7 mlrd. so‘mni yoki 50,3 foizini tashkil etadi.

Budjet mabalag‘larini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari tomonidan byudjeti mablag‘larini maqsadli va qonun hujjatlariga muvofiq sarflanishishi yuzasidan 2020 yilda o‘tkazilgan nazorat natijalarini ko‘radigan bo‘lsak, jami 10 334 ta moliyaviy nazorat tadbirlaridan 8028 tasi (78%)da 488,3 mlrd.so‘m miqdorida qonunbuzilish holatlari va boshqa xatokamchiliklar aniqlangan.

Davlat moliyasini boshqarish axborot dasturi” (DMBAD) va “UzASBO” dasturiy majmualari ma‘lumotlar bazasidan keng foydalangan holda 2 952 ta budjet muassasalarida kameral nazorat tadbirlari o‘tkazilgan. Kameral nazorat tadbirlariga qamrab olingan muassasalarning 1 213 tasida yoki 42 %ida 46,7 mlrd.so‘m miqdorida budjet qonunchiligini buzilish holatlari aniqlanib, nazorat tadbirlari davomida ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida 37,3 mlrd.so‘mi budjetga tiklangan, shuningdek yana 9,1 mlrd.so‘m miqdoridagi budjet mablag‘larini maqsadsiz sarflanishini oldi olingan.

Ushbu nazorat organi tomonidan o‘tkazilgan yakuniy nazorat natijalariga ko‘ra ijtimoiy soha muassasalarida aniqlangan budjet intizomini buzilish holatlari quyidagi sohalarga to‘g‘ri kelmoqda²:

- Xalq ta‘limi tizimi muassasalarida - 29,8 mlrd.so‘m;
- Oliy va o‘rta maxsus ta‘limi tizimi tashkilotlarida - 16,7 mlrd.so‘m;
- Maktabgacha ta‘lim tizimidagi muassasalarida - 8,3 mlrd.so‘m;
- Sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida - 13,8 mlrd.so‘m;
- Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarda - 7,8 mlrd.so‘m va jami 76,4 mlrd so‘mlik

qonunbuzilish holatlari aniqlangan.

Bu ko‘rsatkich o‘tgan davlat budjetidan ushbu sohalarga ajratilgan 2417,3 mlrd so‘mning 3,1 foizini tashkil etmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, budjet xarajatlaridan samarali foydalanishda moliyaviy nazoratning ahamiyati sezilarli bo‘lib, hukumatimiz rahbarining budjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko‘rib chiqish maqsadida qabul qilingan qarori³ asosida samarali taftishlar o‘rniga joriy etilgan budjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasi moliyalashtirish jarayonida yaxshi natija bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma .-T: “IQTISOD-MOLIYA”, 2011.-450b. 11 bet.

2. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiyya kunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017 -104 b.

1 Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma .-T: “IQTISOD-MOLIYA”, 2011.-450b. 11 bet.

2 <https://www.mf.uz>. - O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining rasmiy sayti ma‘lumotlari.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 «Tibbiyot va ta‘lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» avgustdagi PQ-3231-son qarori. - O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2017 y., 35-son, 920-modda



3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020,
5. <http://www.press-servise.uz>



DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBI TAHLILI

Xoʻjayev Jaxongir Dushaboyevich,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta oʻqituvchisi

Izzatulloev Faridun Narziddinzoda

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

MGF-02 Magistratura 2-kurs talabasi

Anotatsiya: Davlat moliyasi tarkibida davlat byudjeti alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot ishimizning mazkur qismida Oʻzbekiston Respublikasining davlat byudjetini va uning iqtisodiy ahamiyatini tahliliga eʼtibor qaratamiz.

Kalit soʻzlar : Davlat budjeti, YaIM, davlat budjeti daromadlari tarkibi, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar.

Davlat byudjeti daromadlari davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi boʻlib, ular davlat funksiyalarini bajarish uchun zarurdir. Davlat byudjeti daromadlari pul mablagʻlari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni oʻzida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Mamlakatimizda 2021 yilda dunyo boʻyicha ayrim mamlakatlarning iqtisodiyotlarida tiklanish jarayoni boshlangan boʻlsa, baʼzi davlatlar pandemiya sababli yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozdan hali ham chiqib keta olganlari yoʻq. Global miqyosda davom etayotgan pandemiya hamda iqtisodiy vaziyat bilan bogʻliq mavhumliklar saqlanib qolayotgan shunday sharoitida, Oʻzbekiston iqtisodiyoti oʻz vaqtida muvofiqlashtirilgan fiskal va monetar siyosat natijasida 7,4 foiz oʻsishni qayd etib, jadal ravishda tiklanishda davom etdi.

Shuningdek, 2021 yil yakunlari boʻyicha eʼlon qilingan Jahon banki hisobotiga koʻra, Oʻzbekistonning yirik iqtisodiy hamkor davlatlarining iqtisodiyotlarida oʻsish qayd etilgan.

Xususan, Rossiya Federatsiyasining iqtisodiyoti 2020 yilda 3,0 foizga qisqarganidan soʻng, 2021 yilda 4,3 foizga oʻsganligi hisoblangan.

Xalqaro valyuta jamgʻarmasining yanvardagi hisoboti boʻyicha ushbu koʻrsatkich 4,5 foizga etgan. Shu bilan birga, Xitoy iqtisodiyoti 2020 yilda 2,2 foizga sekinlashgandan soʻng, 2021 yilda, Jahon bankiga koʻra 8,0 foizga va Xalqaro valyuta jamgʻarmasiga 8,1 foizga oʻsgan. Bundan tashqari, Jahon bankiga koʻra, 2021 yilda Qozogʻiston iqtisodiyoti 3,5 foizga va Turkiya iqtisodiyoti 9,5 foizga oʻsganligi qayd etilgan.

2021 yilda YaIMning nominal hajmi 734,6 trln. soʻmni yoki 69,2 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunda, qishloq hoʻjaligi YaIMning 25,0 foizini yoki 183,5 rln. soʻmni, xizmatlar 35,7 foizini yoki 262,5 trln. soʻmni, sanoat 25,8 foizini yoki 89,6 trln. soʻmni, qurilish 6,2 foizini yoki 45,8 trln. soʻmni va eksport mport mahsulotlariga sof soliqlar 7,2 foizini yoki 53,2 trln. soʻmni tashkil etdi.

Shuningdek, 2021 yilda YaIM tarkibida sanoatning ulushi 0,4 foizga koʻpaygan.

Bungacha, 2020 yilda koronavirus inqirozi sababli sanoatning ulushi 25,7 foizdan 25,4 foizgacha kamaygan edi.

Bundan tashqari, yalpi qoʻshilgan qiymat 2021 yilda 7,5 foizga koʻpayib, 81,4 trln. soʻmni tashkil qildi. 2020 yilda yalpi qoʻshilgan qiymatning oʻsishi 1,9 foizgacha sekinlashgan va 557,8 trln. soʻmga teng boʻlgan.

Shu bilan bir qatorda, 2021 yilda iqtisodiy oʻsishning asosiy drayverlari sanoat va xizmatlar sohasi boʻlib, mos ravishda 9,2 va 8,7 foizga oʻsgan. Bundan tashqari, 2021 yilda qishloq xoʻjaligi 4,0 foizga hamda qurilish sohasi 6,8 foizga oʻsgan.

Shuningdek, YaIMning 7,4 foizlik oʻsishining 3,3 foiz bandi xizmatlar va 2,2 foiz bandi sanoat sohasi hisobiga toʻgʻri keladi. 2020 yilda pandemiya sababli, mazkur sohalarning iqtisodiy oʻsishdagi ulushi eng koʻp kamaygan sohalar boʻlgan. Qishloq hoʻjaligi iqtisodiyot oʻsishining 1,0 foiz bandini taʼminlagan boʻlsa, sof soliqlar va qurilishga oʻsishning mos ravishda 0,5 foiz band va 0,4 foiz bandi toʻgʻri keladi.

Davlat budjeti daromadlarining tarkibi va uning tuzilmasi doimiy boʻlmasdan, ular mamlakat taraqqiyoti va davlatning oldidagi vazifalarning oʻzgarishiga muvofiq ravishda oʻzgarib boradi. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi davlat budjetining daromadlari uchun 2015-2021 yillarda



quyidagi tarkib va tuzilma xosdir.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Daromadlari tarkibi 2015-2021 yil ijrosi¹

Ko'rsatkichlar		2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
DAROMADLAR (MAQSADLI JAMG'ARMALARSIZ) - JAMI		36 493,3	41 043,4	49 681,0	79 099,0	112 165,4	132 938,0	164 680,3
1.	Bevosita soliqlar	8 798,4	9 852,8	11 539,4	15 656,2	31 676,8	45 206,9	58 930,4
1.1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1 180,5	1 215,1	1 475,5	3 502,2	16 360,6	28 712,2	38 363,3
1.2	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	1 207,8	1 515,3	1 707,5	2 108,5	1 988,7	0,0	0,0
1.3	Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalaridan ajratmalar	1 191,7	1 440,8	1 751,7	2 597,9	0,0	0,0	0,0
1.4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	3 800,7	4 137,4	4 876,4	6 422,7	12 668,5	15 140,8	18 917,7
1.5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	681,5	822,3	1 042,8	1 024,8	658,9	0,0	0,0
1.6	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	736,2	721,9	685,5	0,0	0,0	0,0	0,0
1.7	Aylanmadan soliq	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	1 353,9	1 649,4
2.	Bilvosita soliqlar	19 193,8	21 130,7	26 133,2	41 280,4	46 427,2	46 428,4	56 290,5
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	10 851,0	11 891,6	14 685,8	27 876,5	33 809,8	31 177,4	38 439,0
2.2	Aksiz solig'i	5 618,4	6 258,2	7 449,2	9 702,2	10 314,7	11 697,3	13 086,6
2.3	Bojxona boji	1 481,5	1 449,5	1 707,4	1 826,4	2 302,7	3 553,7	4 764,9
2.4	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	1 242,9	1 531,3	1 784,5	1 543,9	0,0	0,0	0,0
2.5	Abonent raqamlaridan foydalanganlik uchun to'lov	0,0	0,0	506,4	331,3	0,0	0,0	0,0
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	4 816,1	5 306,2	6 867,4	12 663,4	19 680,7	21 257,0	23 036,4
3.1	Mulk solig'i	1 393,0	1 659,2	2 129,7	2 606,1	2 360,2	1 974,3	2 457,3
3.2	yer solig'i	750,1	966,7	1 091,8	1 504,2	2 313,2	2 386,7	4 082,8
3.3	yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	2 514,6	2 517,7	3 474,1	8 424,7	14 692,8	16 417,1	15 811,9
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	158,4	162,6	171,8	128,4	314,5	478,8	684,4
4.	Yuqori daromaddan olinadigan soliq	652,5	1 401,9	1 415,2	1 528,0	107,9	0,0	0,0
5.	Boshqa daromadlar	3 032,4	3 351,8	3 725,8	7 971,0	14 272,8	20 045,8	26 423,1

Ushbu 1-jadvalga binoan O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining 2015 yildan 2021 yilgacha bo'lgan muddatda tahlil qismi keltirilgan. Jadvalmalumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat budjetining daromadlar (maqsadli jamg'armalarsiz) jami 2015 – yilda 36 492,7 mlrd so'mni tashkil etib bevosita soliqlar 8 798,5 mlrd so'mdan iborat bo'lgan shuningdek bilvosita soliqlar esa 19193,8 mlrd so'mni tashkil etib, resurs to'lovlari va mulk solig'i 4816,1 mlrd va boshqa daromadlar esa 2015-yilda 3 032,2 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2021 – yilda esa 164 680,3 2 mlrd so'mni tashkil etib, bevosita soliqlar 58 930,4 mlrd so'mdan iborat bo'lgan

1 <https://openbudget.uz/oz/incomesView>



shuningdek bilvosita soliqlaresa 56 290,5 mlrd so‘mni tashkil etib resurs to‘lovlari va mulk solig‘i 23 036,4 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa va boshqa daromadlar esa 2021-yilda 26 423,1 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 804 b . (50,3 b.t.h.);
2. Malikov T.S. Moliya. O,quv qo,llanma. -T.: “Iqtisod- moliya”, 2018. –268 b . (16,0 b.t.h.);
3. Malikov T.S. Byudjet-solig siyosati. O,quv qo,llanma. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. – 376 b. (22,6 b.t.h.);
4. <https://openbudget.uz/oz/incomesView>



RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI VA IQTISODIYOT RAQAMLASHTIRILISHINING HAYOTIMIZGA TA’SIRI

To’rayeva Sevara Fazliddin qizi

Toshkent moliya instituti 3-bosqich talabasi

Sevaraturaeva01@gmail.com

+998977698292

Annotatsiya: Hayotimizga internet, texnologiyalar kirib kelishi har bir sohada o’ziga xos o’zgarishlar olib kelmoqda. Bu o’zgarishlar albatta iqtisodiyotni ham chetlab o’tmadi. Raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyot sohasiga ham kirib keldi va natijada raqamli iqtisodiyot tushunchasi paydo bo’ldi. Bugungi kunda “raqamli iqtisodiyot” atamasi kun sayin ommalashmoqda. Ushbu maqola “raqamli iqtisodiyot” atamasi keng va tor ma’noda va raqamli iqtisodiyotning hayotimizga ta’siri haqida batafsil yoritilgan

Kalit so’zlar: raqamli iqtisodiyot, texnologiyalar, modernizatsiya, raqamlashtirish, innovatsiya

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi nazariy bilim olishda ham, amaliyotda ham keng qo’llaniladi, ammo uning talqini haqida hech qanday kelishuv mavjud emas. Stan Kaplan tomonidan risklarni tahlil qilish usullarida shakllantirilgan mashhur bayonotlarga ko’ra, dunyodagi muammolarning 50% turli xil tushunchalarni ifodalash uchun bir xil so’zlar ishlatilgan vaziyatlardan va bir xil tushunchalar turli so’zlar bilan talqin qilinganligi sababli paydo bo’ladi. Bu xulosa raqamli iqtisodiyot sohasiga xosdir. Ko’pincha raqamlashtirish mavzulariga e’tibor qaratish uchun “raqamli iqtisodiyot” atamasi jurnalistlar va mutaxassislar tomonidan raqamlashtirishning turli yo’nalishlariga nisbatan keng qo’llaniladi, natijada semantik o’zgarishlarning tezligi doimiy ravishda oshib boradi va natijada yangi bilimlar sohasining chegaralarini o’chib ketishi xavfi mavjud, shu sababli uning individualligi va investitsiya jozibadorligi yo’qoladi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish muammolarining dolzarbligi ijtimoiy tarmoqlar orqali ijtimoiy kommunikatsiyalar ko’lamining oshishi va almashinuvlarning tezligi va xilma-xilligini oshiradigan raqamli platformalar samaradorligi (diskret, programlanabilirlik va ishlab chiqarish jarayonlarining algoritmik xususiyatlaridan foydalanishga asoslangan texnologiyalarni qo’llash) bilan bog’liq bo’lib, bu umuman ommaviy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishi uchun mutlaqo yangi va kengroq imkoniyatlarni ochib beradi.

Raqamlashtirish jarayoni keng va tor ma’noda ko’rib chiqilishi kerak:

Birinchi, xarajatlarni kamaytirish va biznes jarayonlarini amalga oshirish, tezligini oshirish uchun ishlab chiqarish va boshqaruvda yangi raqamli texnologiyalarni ommaviy ravishda qo’llash uchun ko’p qirrali tashkiliy va texnologik jarayonlar tushuniladi.

Ikkinchi, tor, texnik jihatdan, tegishli texnologiyalar va platformalarni qo’llash orqali amalga oshiriladigan ma’lumotlarni (axborotni) raqamli uzatish, qayta ishlash va taqdim etishning analog shaklidan o’tishni anglatadi. Iqtisodiy mantiqqa ko’ra, raqamlashtirishning afzalliklari aniq bo’lib, quyidagi samaradorlik omillari bilan belgilanadi:

-tashqi muhitdan to’g’ridan-to’g’ri raqamli signallar tufayli korxonalar tomonidan yangi bozor imkoniyatlaridan foydalanishni tezlashtirish;

-so’rovlarini shaxsiylashtirish va ular bilan doimiy aloqani saqlab turish uchun ma’lumotlarni to’plashni soddalashtirish va kamaytirish orqali mijozlarga xizmat ko’rsatish sifatini yaxshilash;

-biznes jarayonlarini optimallashtirish, imkoniyatini kengaytirish (kechikishlarni maksimal darajada bartaraf etish orqali), shuningdek, raqamli qurilmalar orqali ularni soddalashtirish va tezlashtirish;

-raqamli kanallarning barcha shakllarini va ularning aloqa nuqtalarini qo’llash orqali maqsadli auditoriya va korxonaga geografik qamrovini oshirish.

Ushbu omillar taktik ahamiyatga ega va mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga yo’naltirilgan korxonalar uchun ko’proq xosdir. Raqamlashtirish va raqamli iqtisodiyot sohasida milliy strategiyani shakllantirish uchun raqamlashtirishning dolzarbligi tarmoqlar va raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan, almashinuvlar tezligi, xilma-xilligini oshiradigan, iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirish uchun mutlaqo kengroq imkoniyatlar ochadigan ijtimoiy kommunikatsiyalar ko’lamining oshishi bilan bog’liqligini hisobga olish muhimdir. Yetkazib beruvchilar va iste’molchilar vositachilarsiz bir-birlari bilan tobora ko’proq



muloqot qilmoqdalar, talab va taklifni bog'lash uchun narx omillari yangi hamkorlik mexanizmlari bilan almashtirilmoqda, bu esa o'z navbatida ishtirokchilar tarkibi va mahsulotlarning xilma-xilligi bilan bozorlarni kengaytiradi, korxonalarda texnik va tashkiliy innovatsiyalarni tezkor qo'llashga olib keladi, va bu moslashuvchanlikni oshiradi.

Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi aloqalarni tarmoq tugunlari (gibrid tarmoq tartibi) orqali muvofiqlashtirishning taqsimlangan modeli shakllantirilib, barcha darajadagi tizimlar tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvini oshirishga imkon beradi. Ierarxik ustidan gorizonttal tarmoq o'zaro afzalliklari-har doim almashish tezligi va xilma-xilligi bog'liq yangi iqtisodiy o'sish, asosi. Nobel mukofoti laureati O. Uilyamsonga ko'ra. postsanoat iqtisodiyoti o'zini qattiq vertikal ierarxiyalarga qaraganda konfiguratsiyasida ancha moslashuvchan bo'lgan va bir vaqtning o'zida yanada integratsiyalangan gorizonttal tarmoq hamkorliklari majmuasi sifatida shakllantiradi. Ya'ni, davlat tarmoq va platformalar orqali aloqa jarayonida axborot (bilim) ni birlashtirish va ulardan mohirona foydalanish imkoniyatlarini yaratish postsanoat iqtisodiyotining innovatsiyasi va o'sishining eng muhim shartidir. Raqamlashtirish natijasi-bu qayta ishlash mexanizmlarini boshqarishda yanada to'liq qo'llanilishdir, chunki ular rejalarga muvofiq iqtisodiy faoliyatning barqarorligi va samaradorligini oshirish choralari aniqlashga imkon beradi.

Ushbu nazariy qoidalarga asoslanib, raqamlashtirish maqsad emas, balki vosita va raqamli iqtisod iqtisodiyotning qolgan qismidan alohida ko'rib chiqilishi mumkin emas va tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymatni amalga oshirish raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirilganda, ayniqsa, internetga qaram bo'lgan tarmoqlar uchun faoliyat segmenti sifatida talqin qilinishi kerak. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va infratuzilma iqtisodiyotning barcha sohalarida va boshqaruv darajasida hamkorlikni qo'llab-quvvatlasa, u mantiqiy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, turli boshlang'ichlarning paydo bo'lishi, o'sishi va amalga oshirilishi uchun qulay muhit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abrashkin M.S. Raqamli iqtisodiyotning sanoat rivojlantirishiga ta'siri. 2020
2. Doguchaeva S.M. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot rivojlanish tendentsiyalari. 2018
3. Bolshakov, S. V. korporativ moliyaning raqamli iqtisodiyot sharoitida dolzarb muammolari. 2020



JAHON MAMLAKATLARI MOLIYA TIZIMIDA ISLOM BANKLARI O‘ZIGA XOS XUSIYATLARI.


Adxamjonov Shoxbozbek Bobirjon o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Tel:+998 97 998 09 00

Islom banklariga jahon mamlakatlari qiziqishi uyg‘otmoqda va islom banklari bugungi kunda jadalik bilan rivojlanib an’anaviy banklar bilan raqobatlashib o‘z o‘rni ahamiyatli va samarali ekanligi isbotlamoqda. Bunga yaqqol misol qilib Refinitiv saytini islom moliyasini rivojlanishini 2021-yildagi hisobotini keltirishimiz va ko‘rishimiz mumkin.


Islom banklari sanoatning barcha tarmoqlarida eng ko‘p aktivlarga egalik qilishda davom etmoqda. 2020-yilda islom banki aktivlari 2,3 trillion AQSh dollari tashkil etdi, bu yilgi ikki raqamli o‘shish 14 foizni tashkil etdi, bu 2019-yildagi 15 foizdan bir oz pasaydi (1.1-rasm). Biroq bu ko‘rsatkich 2025-yilga borib 3,306 trillion AQSh dollari tashkil qilishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkichlarda Ko‘rfaz hamkorlik kengashi davlatlari birinchilardan bo‘lishda davom etmoqda, mintaqada aktivlari bo‘yicha eng yirik islom banklari joylashgan; ular eng yaxshi 10 talikdan beshtasini tashkil etadi, bu esa ushbu asosiy mintaqaning umumiy global islom banki sanoati uchun tizimli ahamiyatini ko‘rsatadi.



1.1-rasm Islom bankingning aktivlar o‘shishi soni¹.

K.H.K (Fors ko‘rfaz arab mamlakatlari hamkorlik kengashi) eng yirik islom banklariga ega bo‘lishi mumkin, ammo eng yuqori o‘shish sur‘atlari K.H.K va Janubi-Sharqiy Osiyodan tashqari asosiy bo‘lmagan bozorlarda, masalan, Efiopiya (244% o‘shish, 2020 yilda eng yuqori), Tojikiston (110% o‘shish) va Marokash (66 % o‘shish)kabi mamlakatlarda ham kuztilayapti. O‘shish sur‘atlari 40% chegaradan yuqori bo‘lgan boshqa ijrochilar qatoriga Afg‘oniston (49%) va Sudan (47%) kiradi, ular ham asosiy bo‘lmagan bozorlardir. Ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan yana bir narsa bu Pokiston bo‘lib, islomiy moliya bo‘yicha asosiy bo‘lmagan bozor bo‘lib, 2020 yilda islomiy bank aktivlari 37 foizga o‘sgan.

1 Islamic finance development report 2021
<https://www.refinitiv.com/en>



1.2-rasm Islom bank aktivlari mintaqalar ulushi¹.

1.2-rasmga qaraydigan bo'lsak islom bank aktivlarinign asosiysi qismi Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, Janubiy-Sharqiy osiyoga to'g'ri kelyapti.

O'rganishlar natijalaridan ko'rinib turibdiki, islom bank tizimi ko'p mamlakatlarda o'zini oqlagan va moliya tizimida raqobat muhitini rivojlantirib mamlakat aholisiga moliya tizimidan samarali foydalanish uchun ko'p imkoniyatlarni vujudga keltirgan.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar tahlilida deyarli so'nggi besh yil ichida past natijalar ko'rsatmagan. Shuni alohida ta'kidlash keraki, 2020 yilda pandemiya sharoitida ham islom moliyasi natijalari tushmagan va yuqori ko'rsatkichlar qayd etgan. Shundan so'ng nomusulmon mamlakatlar ham o'zlarining moliya siyosatiga islom moliyasini jalb qilib dualistik tizimni joriy qilishdi.

Tahlilimizda o'rganilgan mamlakatlarning islom bank tizimi faoliyatini o'rgangan holda mamlakatimizda an'anaviy moliya bilan birgalikda islom moliyasini jalb qilib, dualistik tizimni joriy qilish kerak degan fikrga keldim. Agar bu tizimni joriy qilsak, ko'p aholimiz bu tizimga ijobiy fikr bildiradi va bundan unumli foydalanib bo'sh turgan pul mablag'larini kiritish orqali investitsiya muhitini yaxshilab, iqtisodiyotimizni yanada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islamic finance development report 2021 <https://www.refinitiv.com/en>.
2. Islamic finance development report 2021 <https://www.refinitiv.com/en>.

¹ Islamic finance development report 2021 <https://www.refinitiv.com/en>



ХУДУДЛАРНИ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДА БЮДЖЕТ СОЛИҚ СИЁСАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ш.Тоғайниязов

ТДИУ “Молия” кафедраси магистранти

Худудларни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан янада юксалтиришда маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг самарали фаолияти муҳим аҳамиятга эга. Бу борада давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев «Энди ҳар бир худуд раҳбари ўз аравасини ўзи тортиши керак. Туман, шаҳар, вилоят ҳокимликлари ҳар бир ишда масъулиятни ўз зиммасига олиши зарур»¹ деб таъкидлаган эдилар.

Аввало таъкидлаш жоизки, худудларни иқтисодий ривожлантириш тушунчаси ва унинг маъно мазмунини янада аниқроқ англаш учун иқтисодиёт, иқтисодий фаолият, иқтисодиётнинг муаммолари, иқтисодиётнинг асосий муаммоларини ҳал қилиш йўллари каби тушунчаларнинг амалий жиҳатлари билан бир қаторда, назарий жиҳатларига алоҳида эътибор қаратиш, уларни чуқурак ўрганиш талаб этилади.

Иқтисодий фаолият – инсонларнинг моддий ва маънавий неъматлар ишлаб чиқариш, истеъмолчига етказиб бериш ҳамда хизматлар кўрсатишга қаратилган, бир-бирига боғлиқликда амалга ошириладиган фаолиятлари.

Иқтисодиётнинг асосий муаммоси – бу иқтисодий ресурслар чекланган шароитда жамиятнинг чексиз эҳтиёжларини қандай қилиб тўлароқ қондириб бориш мумкинлиги тўғрисидаги масаладир.

Иқтисодиётнинг асосий муаммосини ҳал қилиш йўллари – иқтисодий ресурслар миқдорини кўпайтириш, ресурслар унумдорлигини ошириш, ресурслардан фойдаланишнинг турли муқобил вариантларидан энг самаралисини танлаш, ресурсларни самарали уйғунлаштириш, жамият эҳтиёжларини чеклаш.

Маълумки кейинги йилларда Ўзбекистон Республикасининг барча худудларини ҳар томонлама ривожланишга қаратилган кенг кўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида:

-виллоятлар, туманлар ва шаҳарларнинг комплекс ва мувозанатли ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, уларнинг салоҳиятидан самарали ва оптимал фойдаланиш;

-социал-иқтисодий жадал ривожланиши, халқнинг турмуш даражаси ва даромадларини ошириш учун ҳар бир худуднинг табиий, минерал ва хом ашё, саноат, қишлоқ хўжалиги, туризм ва меҳнат салоҳиятидан комплекс ва самарали фойдаланишни таъминлаш;

-худудлар иқтисодиётини модернизация ва диверсификация қилиш масштабларни кенгайтириш ҳисобига худудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш даражасидаги фарқини камайтириш, энг аввало саноат ва экспорт салоҳиятини ўстириш йўли билан қиёсланган туман ва шаҳарларни жадал ривожлантириш;

-янги саноат ишлаб чиқариш ва сервис марказларини ташкил этиш ҳисобига шаҳар типдаги кичик шаҳарлар ва шаҳарчаларни актив ривожлантириш, йирик хўжалик бирлашмаларнинг маблағларини, банкларнинг кредитларини ва хусусий хорижий инвестицияларни жалб қилиш;

-субвенцион туман ва шаҳарларни камайтириш, саноат ва хизматлар кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш ҳисобига маҳаллий бюджетларнинг даромад базасини кенгайтириш;

-саноат ва бошқа ишлаб чиқариш объектларни жойлаштириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, хусусий тадбиркорликни кенг ривожлантириш ҳамда аҳолининг турмуш даражасини яхшилаш мақсадида худудларнинг ишлаб чиқариш, муҳандис-коммуникация ва ижтимоий инфратузилмасини янада ривожлантириш ва модернизация қилиш каби кўплаб вазифалар белгиланган.

Худудларни ҳар томонлама ривожлантириш масаласи муҳим вазифалардан эканлиги қайд этилиб, «...худудларни, айниқса, қолоқ шаҳар ва туманларни комплекс ривожлантиришга доир энг муҳим устувор вазифани амалга ошириш заруратидан келиб чиқилди. Агар

1 Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – Б. 39.



худудларнинг аҳоли жон бошига тўғри келадиган кўрсаткичларини солиштирсак, улар кун ва тундек бир биридан фарқ қилади»¹ деб келтирилган.

Айтиш мумкинки худудларнинг иқтисодий ҳолати бир биридан фарқ қилиши сабаблари аҳолининг кафолатланган даромад манбалари етарли эмаслиги, яъни мунтазам иш ўрни билан таъминланмагани, худудларнинг иқтисодий инфратузилмаси бир ҳил эмаслиги каби кўплаб омилларга боғлиқ. Дарҳақиқат, иқтисодий соҳалар фаолиятини самарали ташкил этиш нафақат бугунги, балки эртанги ҳаётимиз фаровонлигини таъминлашга қаратилганлигини унитмаслик лозим.

Юртимизда амалга оширилган иқтисодий ислохотлардан кўзланган асосий мақсад мамлакат тараққиётини сифат жиҳатдан янги босқича кўтаришга қаратилган. Бошқа соҳаларда бўлган каби худудларда йиғилиб қолган кўплаб муаммоларнинг ечимига қаратилган қонун ҳужжатлари қабул қилинмоқда.

Ушбу норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мамлакат худудларини ҳар томонлама ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш билан бир қаторда, соҳага янгича ёндашувлари татбиқ этиш масалаларини ҳам ҳал этишга қаратилган.

Хусусан, иқтисодиёт тармоқларини бошқаришда давлат аралашувини камайтириш масалаларига ҳам эътибор қаратилган. Мамлакат иқтисодий тармоқларининг амалий жиҳатларини ўрганиш ва таҳлил қилиш билан бир қаторда шу соҳада олиб борилаётган илмий тадқиқот ишлари билан ҳам таниб бориш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Таниқли олимлар А.Ўлмасов ҳамда А.Ваҳобовлар фикрича, —Давлатнинг иқтисодиётга аралашуви меъёри шундан иборатки, давлатнинг фаолияти бозор механизмнинг ишлашига ҳалақит бермаслиги, зарур бўлганда, бу механизм ишини тўлдириб туриши ҳам талаб қилинади.²

Шу соҳада илмий тадқиқотлар олиб борган олимлардан яна бири Ш.Қобиловнинг фикрига кўра, «Иқтисодий ривожланиш мамлакат айрим худудлари ўртасидаги боғлиқликни ҳам тақозо қилади. Юзаки қараганда худудлар ўртасидаги мутаносибликларнинг мамлакат иқтисодий ривождаги роли тўлиқ намоён бўлмайди. Лекин алоҳида худудий бўлинмалар (вилоят, туман, шаҳар ва бошқа худудий бирликлар)нинг бир-бирига иқтисодий ва ташкилий жиҳатдан боғлиқлиги, ихтисослашиш, ишлаб чиқариш кооперацияси ва коммуникация нуқтаи назаридан қаралса, бу боғлиқликнинг аҳамияти яққол кўринади».

Ўзбекистонда иқтисодиётни таркибий ўзгартириш ва диверсификация қилишни чуқурлаштириш, аҳоли даромади ва турмуш сифатини оширишнинг муҳим омил ва йўналишларидан бири худудларнинг инвестицион жозибдорлигини оширишдир.

Мамлакатимиз худудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, аҳолининг яшаш шароитларини яхшилаш, аҳоли билан давлат бошқаруви органлари ўртасида ўзаро мулоқотнинг демократик принципларини жорий этиш, аҳолига сифатли давлат хизматлари кўрсатиш фаолиятнинг очиқ ва ошқоралигини таъминлаш давлат сиёсатининг асосий мақсадларидан ҳисобланади.

Худудларнинг иқтисодий ривожлантиришда оқоритехнологияли қайта ишлаш тармоқларини жорий этиш, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш, саноат, ишлаб чиқариш тизимида ахборот технологиялари имкониятларидан самарали фойдаланиш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, эркин иқтисодий зоналар ҳамда кичик саноат зоналарида бизнес субъектларини кўпайтириш каби соҳалар муҳим аҳамиятга эга.

Президент Ш.М.Мирзиёев 2020 йил 24 январдаги Мурожаатларида бу борада тўхталиб, —Инвестиция жалб этишнинг самарали воситаларидан бири бўлган давлат-хусусий шериклик механизмларини транспорт, энергетика, йўл, коммунал, тиббиёт, таълим каби соҳаларга кенг татбиқ этиш керак. Ҳозирги вақтда қурилиш соҳаси иқтисодиётнинг муҳим —драйверларидан бирига айланди... деб таъкидладилар. Шунингдек мазкур Мурожаатда —Ислохотларимизга жиддий тўсқинлик қилаётган —яширин иқтисодиётга барҳам берилмас

1 Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳарбир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 49.

2 Ўлмасов А., Ваҳобов А.В. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: «Шарк», 2006. – Б. 461. ² Қобилов Ш.Р. Иқтисодиёт назарияси. Т.: 2013. 351. – Б.



экан, соғлом рақобат ҳам, қулай инвестиция муҳити ҳам шаклланмайди¹ деган фикларидан —яширин иқтисодиётнинг давлат ривожига таъсири қанчалик зарарли эканлигини англаш мумкин.

Кейинги йилларда юқоридаги каби салбий ҳолатлар бўйича Ўзбекистон Республикасининг кўрсаткичлари ижобий томонга ўзгараётгани кўплаб халқаро экспертлар томонидан эътироф этилмоқда. Ушбу ҳолатни турли халқаро расмий рейтинг натижаларида ҳам кўришимиз мумкин. Буни кейинги йилларда давлат бошқаруви соҳасида амалга оширилган ислохотларнинг амалий натижаси деб эътироф этиш лозим.

Давлат бошқарувида —коррупция ва —хуфиёна иқтисодиётга барҳам бериш, иқтисодиётни бошқаришда давлат аралашувини камайтириш борасида кўплаб норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 майдаги «Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5729-сонли Фармони² қабул қилинди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 январдаги —Иқтисодиётни янада ривожлантириш ва иқтисодий сиёсат самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисидаги ПФ-5614-сонли Фармонида³ — Хуфиёна иқтисодиёт»ни қисқартириш бўйича дастур ишлаб чиқиш белгиланди. Юқоридаги вазифаларни самарали амалга ошириш учун мамлакат иқтисодиётига катта хавф солувчи —коррупция, —хуфиёна иқтисодиёт каби иллатларга қарши муросасиз курашиш лозим.

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, иқтисодиёт ва унинг асосий тушунчаларининг нафақат амалий жихатларини шу билан бир қаторда назарий жихатларини ҳам илмий жамоатчилик билан бир қаторда амалиётчилар ҳам доимо ўқиб ўрганиб боришлари лозим. Бу соҳа ходимларининг тизимга оид билим ва кўникмаларини оширишга хизмат қилади. Бу эса ўз навбатида давлат бошқаруви органларининг малакали ходимлар билан таъминлаш имконини яхшилади. Бу албатта давлат ва жамиятнинг янада ривожланишига амалий замин яратади.

1 Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Мурожаатидан.

2 Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами», 2019 йил 3 июнь, 22-сон, 405-модда

3 Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.01.2019 й., 06/19/5614/2437-сон, 11.12.2019 й., /19/5892/4134-сон



БЮДЖЕТ СОЛИҚ СИЁСАТИ ЖАРАЁНИДА МАҲАЛЛИЙ КЕНГАШЛАРНИНГ РОЛИНИ КУЧАЙТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Ш.Тоғайниязов

ТДИУ “Молия” кафедраси магистранти

Сўнги пайтларда Ўзбекистонда бюджет соҳасидаги қонунчиликни такомиллаштириш, бюджет маблағларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, шунингдек, бюджет жараёнидан маҳаллий Кенгашлар ролини кучайтиришга катта эътибор қаратилмоқда. Бунда халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари депутатининг фаолияти самарадорлигини ошириш, унда жамоатчиликнинг иштироки ва назоратини янада такомиллаштириш долзарб масалалардан бири бўлиб турибди.

Ўзбекистонда 2019 йил 9 декабрда —2020 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисидаги ЎРҚ-589-сон Қонуни қабул қилинди. У барча даражадаги давлат бошқаруви секторларининг бюджет жавобгарлигини ошириш, бюджет ижро интизомини янада мустаҳкамлаш, бюрократияни қисқартириш имконини беради, шунингдек маҳаллий ҳокимиятларга кўпроқ эркинлик беради.

Қонунда бюджет жараёнининг барча жиҳатларини тартибга солинган бўлиб, Олий Мажлис, Вазирлар Маҳкамаси, минтақавий ва маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари, шунингдек Молия вазирлиги ўртасида бюджет ваколатлари тақсимланган. Турли даражадаги бюджетлардан ажратиладиган маблағлардан фойдаланиш, уни қайта кўриб чиқиш ва ўзгартиришлар киритиш тартиби белгиланган.

Хусусан, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар, туманлар ва шаҳарлар Кенгашлари тегишли равишда қуйидагиларни тасдиқлайди:

Қорақалпоғистон Республикаси бюджетидан, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетларидан, туманлар ва шаҳарлар бюджетларидан ҳудудий бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган бюджет маблағларининг чекланган миқдорларини;

Қорақалпоғистон Республикаси республика бюджети, вилоятлар вилоят бюджетлари, Тошкент шаҳри шаҳар бюджети, туманлар ва шаҳарлар бюджетлари даромадларининг прогнозини маъқуллайди;

Қорақалпоғистон Республикаси бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетлари, туманлар ва шаҳарлар бюджетларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида қарорлар қабул қилади.

—Халқ депутатлари туман ва шаҳар Кенгашлари қарорларига мувофиқ туман ва шаҳарлар ҳокимлари туман ва шаҳарлар бюджетлари даромадлари ҳамда харажатлари ҳажмларини тасдиқлаш бўйича уч иш куни ичида қарорлар қабул қилади.

Бу халқ депутатлари Кенгашларига берилган муҳим ваколатлардан биридир. Чунки Кенгаш шу ваколатидан фойдаланиб маҳаллий даражадаги муаммоларни тубдан ҳал эта олиши мумкин.

Олайик, депутат у ёки бу муаммони депутатлик сўрови ёки бошқа имкониятларидан келиб чиқиб бир марта ҳал қилиб бериши мумкин (масалан, ички йўللарни таъмирлатиб беради). Бироқ у Кенгаш депутати сифатида мажлисда бюджет тақсимотига масъулият билан ёндашса ва маблағни муаммоли соҳага йўналтира олса, ўнлаб ички йўللар таъмирдан чиқарилиши мумкин. Қолаверса, сўнги йилларда маҳаллий бюджет тақсимоти соҳасида қатор прогрессив ўзгаришлар қилинмоқдаки, бу халқ депутатлари кенгашлари ва хусусан, депутатларнинг ўзида ҳам катта имкониятлар пайдо бўлишига олиб келиши мумкин.

2018 йилда солиқ маъмуриятчилигининг моҳиятан янги тартиби жорий этилгани сабабли солиқларнинг прогноздан ошириб бажарилган қисми ҳисобидан маҳаллий бюджетлар ихтиёрида 5,5 триллион сўм маблағ қолдирилди. Бу 2017 йилги кўрсаткичларга нисбатан 6 баробар, 2016 йилга нисбатан 32 баробар кўпдир.

Депутатлар ана шу маблағларнинг мақсадга мувофиқ сарфланишида шахсий масъулиятларини ҳис этишлари ва бюджет тақсимотида фаол ва хушёр бўлишлари замон талабидир.

Қолаверса, бюджет маълумотларининг очиқлиги ва шаффофлигини янада ошириш, бюджет маблағларининг шаклланиши ва сарфланиши устидан парламент ва жамоатчилик



назоратини кучайтириш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 августдаги —Бюджет маълумотларининг очиқлигини ва бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-3917-сонли қарорига асосан 2019 йилдан бошлаб бюджет маблағларини тақсимлашда фуқаролар иштирокининг туман (шаҳар)лар бюджетлари қўшимча манбаларининг камида 10 фоизини жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган тадбирларга йўналтиришни назарда тутадиган механизми жорий этилди.

Эндиликда ҳар бир Ўзбекистон фуқароси ўзининг яшаб турган туман ёки шаҳрининг маҳаллий бюджетида (даромадларни орттириб бажаришдан) ҳосил бўлган қўшимча маблағларнинг камида 10 фоизини нимага ишлатилиши тўғрисида ҳар чорак, яъни уч ойда бир маротаба таклиф бериши ёки таклиф берган бошқа фуқароларнинг таклифларидан биттасига овоз бериши билан ҳал қилади.

Тадбирлар учун таклиф бериш ё уларни овозга қўйиш Ўзбекистон Молия вазирлигининг «Очиқ бюджет» (openbudget.uz) ахборот портали орқали онлайн тарзда автоматик равишда қабул қилинади.

Ахборот порталида овозга қўйиш натижасида энг кўп овоз олган тадбир ғолиб бўлиб, тегишли ҳудуд бюджетидан шаклланган қўшимча маблағлар ҳисобидан тегишли миқдорларда молиялаштирилади.

2019 йил 1-чорак якунларига кўра туман (шаҳар)лар бюджетлари қўшимча манбаларини йўналтиришда фуқаролардан Республика бўйича жами 4 094 та таклиф ва овозлар қолдирилган бўлса, 2019 йил 2-чорагида бу рақам 5 баробарга кўпроқ, яъни 19 976 тани ташкил этди. 2019 йил 1-чорак якунлари бўйича туман (шаҳар)лар бюджетларида жами шаклланган қўшимча маблағлар 253,3 млрд. сўмни ташкил қилиб, шундан 11,4 фоизи ёки 28,9 млрд. сўм аҳоли таклифларига кўра шакллантирилган тадбирларга сарфланган. 2019 йилнинг 2-чорагида қўшимча манбалар ҳисобидан 437,9 млрд. сўм шакллантирилиб, шундан 11 фоизи ёки 48,3 млрд. сўм аҳоли таклифларига кўра шакллантирилган тадбирларга сарфланган.

Маҳаллий Кенгаш депутатлари депутат сўрови билан мурожаат этиши бугунги кунда жамоатчилик назоратини амалга оширишда муҳим воситаларидан бири ҳисобланади.

Депутат сўрови билан мурожаат қилиш – депутатнинг энг муҳим ҳуқуқларидан бири. —Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгаши депутатининг мақоми тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Қонунига биноан, депутат тегишли ҳудудда жойлашган давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг мансабдор шахсларига уларнинг ваколатларига кирадиган масалалар юзасидан асослантирилган тушунтириш бериш ёки ўз нуқтаи назарини баён қилиш талаби билан депутат сўрови юборишга ҳақли. Депутат сўровининг мақсади ҳокимликлар, уларнинг бошқармалари ва бўлимлари фаолиятидаги, маҳаллий Кенгаш ҳудудида жойлашган корхоналар, муассасалар ва ташкилотлар раҳбарлари фаолиятидаги камчиликларни бартараф қилиш ёки бўшлиқларни тўлдиришдир. Депутат сўрови айрим депутат томонидан ҳам, депутатлар гуруҳи томонидан ҳам берилиши мумкин .

Шу ўринда маҳаллий бюджет ижроси бўйича депутат сўрови депутатлик назоратини амалга оширишнинг энг муҳим ва зарурий шаклларида бири эканлигини қайд этишимиз даркор. Таҳлиллар кўрсатдики, Жиззах вилоятида аксарият депутатлар маҳаллий бюджет ижроси устидан назоратнинг депутат сўрови юбориш шаклидан самарали фойдаланаётмаганлигини кўрсатмоқда. Хусусан, халқ депутатлари Жиззах вилоят Кенгаши депутатлари томонидан 2015 йилда – 25, 2016 йилда – 31, 2017 йилда – 35, 2018 йилда – 54 ва 2019 йилнинг биринчи ярим йиллиги давомида 29 маротаба депутатлик сўровидан фойдаланганлар. Ижроия ҳокимият фаолияти устидан назоратни ташкил этишда депутатлик сўрови ваколатларидан фаолроқ фойдаланиш даражасига кўра Жиззах вилояти халқ депутатлари Дўстлик, Зафаробод, Фориш, Зомин ва Янгиобод туманлари Кенгашлари депутатлари фаолиятини кўрсатиш мумкин.

Кўриниб турибдики, маҳаллий бюджетлар устидан депутатлик назоратини амалга оширишда ҳали имкониятлардан тўла фойдаланилганича йўқ ва ўз ечимини кутаётган муаммолар етарлича топилади. Ушбуга кўра муаллиф қуйидаги фикр-мулоҳазаларни билдиради:

Маҳаллий Кенгашлар ўзларининг бюджет ваколатларини тўла-тўқис амалга ошириши учун маҳаллий бюджетнинг ижро этилишини назорат қилиш соҳасидаги ваколатларини



кенгайтириш, айнан қонунчилик вилоятлар (туманлар ва шаҳарлар) молия, солиқ бошқармаларини (бўлимларини) ҳар чоракда маҳаллий вакиллик органига ҳисобот бериш мажбуриятларини юклашлари керак.

Шунингдек, маҳаллий бюджетлар лойиҳасини ишлаб чиқишда маҳаллий Кенгашларнинг доимий комиссияларини жалб қилиш ва уларни ҳуқуқий ҳужжатларда қайд этиш зарур.

Афсуски, Кенгаш депутатларининг бюджет қонунчилиги соҳасида малакасининг етишмаслиги уларнинг бюджет ваколатларини расмий ва юзаки амалга оширишга олиб келади. Улар бюджет лойиҳасини кўриб чиқиш ва режалаштириш жараёнида, шунингдек маҳаллий бюджетни ва унинг ижроси тўғрисидаги ҳисоботни тасдиқлашда фаол иштирок этмайдилар. Шунга кўра Ўзбекистон Республикаси Давлат бошқаруви академиясида ўқув курсларини ташкил этиш орқали Кенгашлар депутатларининг бюджет қонунчилиги соҳасидаги билимларини ошириш мақсадга мувофиқдир.

2020 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисидаги қонуннинг 18-моддасига асосан Қорақалпоғистон Республикаси бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетларининг навбатдаги йил учун лойиҳалари Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари томонидан ушбу Қонун кучга киргандан кейин бир ҳафта муддатда, мазкур Қонунга мувофиқлаштирилган ҳолда тегишли равишда Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашларига киритилиши керак. Кенгаш томонидан эса 3 кундан кеч бўлмаган муддатда кўриб чиқилиши ва тегишли қарорини қабул қилиши лозим. Бу эса, кенгаш маҳаллий бюджет лойиҳасини кўриб чиқиш ва тасдиқлаш учун 3 календарь кунга эга эканини англатади.

Фикримча маҳаллий бюджетни тасдиқловчи Кенгаш депутатларига маҳаллий бюджет билан танишиб чиқиш учун камида 2 ҳафта муддат белгиланиши, шунингдек, маҳаллий бюджет лойиҳасида ифодаланаётган сонлар ўз изоҳи билан келтирилиши зарурлигига оид қоидалар бюджет қонунчилигида ифодаланиши керак.



КБТ СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ИННОВАЦИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ВА ИННОВАЦИОН МАРКЕТИНГДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Турғунов Саиджон Зокиржон ўғли
ТДИУ, МБА-10 гуруҳ магистранти

Аннотация: Кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектлари фаолиятига инновацияларни жорий этиш орқали маҳсулотлар рақобатбардошлигини ошириш ва инновацион маркетинг усулларида фойдаланиш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: кичик бизнес ва тадбиркорлик, инновациялар, инновацион маркетинг, рақобатбардошлик.

Тадбиркорлик тизимининг замонавий шакллари бўлган фирмаларнинг ташкилий, иқтисодий технологик, инновацион ҳуқуқлари ва имкониятлари, ҳамда уларнинг иқтисодий таваккалчилик ва молиявий хавф-хатарлар билан фаолият олиб боришлари бу субъектнинг иқтисодий барқарорлиги ва хавфсизлигини таъминлаш зарурлигини келтириб чиқармоқда. Ҳозирги давр очик ва яширин аёвсиз рақобат кураши бозорида фирмалар фаолияти натижалари кўпроқ, уларнинг коммерция сирлари, технологик ва инновацион нау-ҳау, лицензия ва патентлар билан бевосита боғлиқлиги бу фирмалардаги инновацион, технологик ва бошқарув янгиликларини, ҳамда интеллектуал мулк дахлсизлигини ҳимоялашни бош масала қилиб қўяди ва улар ечимини ҳал қилишни талаб қилади. Ёки, бошқача айтганда, замонавий фирмалар, инновацияларга асосланган иқтисодиётнинг иқтисодий муҳитида фаолият кўрсатадилар, зеро бундай муҳитда билимлар кўпинча инновацион товар ва хизмат турларига айланади ва улар технологиялари, коммерция сир-асрорлари эса рақобатчилардан ҳимояланиши лозим. Бундай вазият ва шарт-шароитлар фирмага бўлган хавф-хатарлар ва уларнинг манбалари, омилларини аниқлаш ҳамда улардан фирма фаолиятига бўлган хавф ва таҳдидларни олдиндан кўрабилиш, бундай салбий оқибатлар таъсирида юзага келган ва келгусида бўлиши мумкин бўлган иқтисодий зарарлар ва харажатларни баҳолашни ҳамда бу баҳолашнинг аниқ усуллари яратиш ва такомиллаштириш кераклигини тақозо қилади. Фирма иқтисодий барқарорлиги ва хавфсизлигини тадқиқ қиладиган илмий йўналишлар ва ёндашувларни ҳамда усулларни таҳлил қилиш ва уларни фирма фаолияти натижаларини тадқиқ инструменти сифатида қўлланиш зарурлиги, кейинги йиллардаги салбий иқтисодий тебранишлар ва жаҳон молиявий соҳасидаги кризислари, айниқса келгуси йилларда иқтисодиётнинг реал секторида кутилаётган ишлаб чиқариш муаммоларининг олдини олиш ва оқибатларини бартараф қилишда илмий ва амалий аҳамиятга эга бўлади. Глобал ва минтақавий иқтисодиёт доиралардаги миқдор ва сифат ўзгаришлари, инсон капиталининг жадал ва кенг қўламда ўсиши фирма иқтисодий барқарорлиги ва хавфсизлиги предметига ҳам, хусусан унинг категориялари ва тушунчалари моҳияти талқинига ҳам ахборот кўрсаткичлари тизимига ойдинлик киритишни талаб қилади. Миллий иқтисодиётимизни ривожланишида инновацияларнинг аҳамияти тобора ортиб бормоқда. Бугун мамлакатимизда амалга оширилаётган жадал ислохотларнинг самарасини таъминлаш, албатта, илм-фанни ривожлантириш, янги лойиҳалар ва ишланмаларни ҳаётга татбиқ этиш заруриятини пайдо қилади. Шундан келиб чиқиб, ўз ғоялари ва лойиҳаларига эга бўлган ёшларни қўллаб-қувватлаш мақсадида янги тизим йўлга қўйилмоқда. Бунга мисол қилиб бизнес-инкубаторларни турли ҳилдаги инновацион лойиҳаларни ишлаб чиқишда фаол иштирок этаётганини қайд этиш лозим. Умуман олганда инновация – бу бозор талабидан келиб чиққан ҳолда жараёнлар ва маҳсулотларнинг сифатли ўсиш самарадорлигини таъминлаш учун жорий этилган янгиликдир. Инсон интеллектуал фаолияти, унинг фантазияси, ижодий жараёни, кашфиётлари, ихтиролари ва рационализаторлигининг якуний натижаси ҳисобланади. Янги истеъмолчилик хусусиятлари ёки ишлаб чиқариш тизимларининг самарадорлигини сифатли ошириш орқали бозорга маҳсулот(товарлар ва хизматлар)ни етказиб бериш – инновацияга мисол бўла олади. Бизнес инкубатор эса – янги корхона учун қулай шароитлар яратиб берувчи ва иш бошлаш учун керакли бўлган жой, офис техникаси, бухгалтер, консультант, ҳуқуқшунос, аудитор, маркетингларнинг хизматлари билан таъминлаб берувчи ташкилотдир. Бизнес инкубаторга ёрқин мисол қилиб Тошкент давлат иқтисодиёт университети қошида ташкил этилган “Young Entrepreneurs Generator” (“ҲЕ



Generator”) ни келтиришимиз мумкин. Бу лойиха университет талабаларига ўз бизнесини яратиш, йўлга қўйиш ва ривожлантиришда кўмаклашади. Жуда кўпчилик одамлар бизнес бошлашга кўрқади ва натижада унда бўлган яхши бизнес ғоялар, яъни бу инновациялар ҳам бўлиши мумкин, амалга ошмай қолиб кетади. Янги иш бошлаган тадбиркорларга ўз бизнес ғоялари ва лойихаларини амалга оширишда ҳар томонлама ёрдам кўрсатиш тизимини ишлаб чиқиши ҳам муҳим ҳисобланади ва бунда бизнес-инкубаторлар янги “Start-up” лойихаларни амалга оширишда бевосита кўмак бериши даркор.

Бутун жаҳон иқтисодчи олимлари “инновация” атамасига таъриф беришда, турлича ёндашувларни амалга оширишган. Улар “инновация”га бир-биридан фарқли равишда инновацияларни яратиш, ривожланиш каби таърифлар билан бойитганлар. Масалан, Я.Кук ва П.Майерслар «инновация – ғоянинг пайдо бўлишидан унинг тайёр маҳсулотга айланиб, бозор истеъмолига чиқгунга қадар бўлган бутун жараён» деб таъриф беришган. Юқорида таъкидлаб ўтилган фикрларни жамлаб, инновацион ғояларни жорий қилиш ва амалга ошириш жараёнини “инновацион фаолият” деб таъриф берамиз. Инновацион жараён ва инновацион фаолият бир маъноли атама ҳисобланиб, янгиликни яратиш, кенг тарқатиш ва атроф-муҳитга жорий этиш масалалари ҳал этиш жараёни ҳисобланади. “Инновацион фаолият” - янгиликларни жорий этиш, ишлаб чиқариш янги технологиялари негизда рақобатбардош маҳсулот (товар) турларини яратиш ва тижоратлаштиришга қаратилган жараёнлар мажмуасидан иборат. Бу жараён ғоянинг пайдо бўлиши, унинг мақсадини аниқлаш ва амалга оширишдан то ишлаб чиқаришни ташкил этиш, маҳсулот ишлаб чиқариш, уни сотиш ва иқтисодий самара олишгача бўлган ишларни ўз ичига олади. Инновация ютуқларининг иқтисодий натижалари ишлаб чиқариш жараёнида моддий ресурсларни, маҳсулот бирлигига сарфланадиган жонли ва буюмлашган меҳнатни тежашни, киши бошига меҳнат унумдорлигининг ошиб боришини, атроф- муҳитнинг экологик жиҳатдан ифлосланиш даражасини камайтиришни таъминлашда, ишлаб чиқариш, ижтимоий соҳада банд бўлганларнинг иш ҳақи ва даромадларининг ўсиб бориши, кам таъминланган оилаларни ижтимоий ҳимоялаш даражасини ошиб бориши ҳамда ижтимоий инфратузилмани ривожланиб боришида ифодаланади. Маҳсулотни янгилаш ва янги технологияларни жорий этиб харажатларни камайтириш, маҳсулот сифатини яхшилаш, кўшимча фойда олиш инновацион фаолиятнинг мақсадидир. Инновацияларнинг асосий мақсади маълум фойда олиш экан, иккала таъсир этувчи босимда ноаниқлик даражаси юқори бўлганлиги учун инновациялар ҳар доим ҳам муваффақиятли бўлмайди. Инновацион фаолиятнинг таркибини инновацион жараёнлар ташкил этади. Бу фаолият еттита жараёнлардан ташкил топган бўлиб, улар бир-бирига чамбарчас боғлиқ бўлган инновацион жараёнларни тартибга солиб турадиган тизимга эгадир. Инициация жараёнида биричи бўлиб мақсад ва вазифалар аниқланиб, ғоялар генерацияси, янги маҳсулотни яратиш концепциясига мувофиқ тажрибасини ўтказиш ва намуналар прототипини ишлаб чиқиш, конструкциялаш ватайёрлаш ишларини амалга оширади. Инновацион маркетинг жараёнида инновацион маҳсулотни бозорга чиқаришдан олдин тадқиқот ўтказиш (инновацион маҳсулотга нисбатан истеъмолчиларнинг фикри, бозор потенциалини баҳолаш, янги маҳсулотни сотишда истеъмолчилар қобиляти ўрганиш, инвестор излаш)ни ўз ичига олади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги қонуни (янги таҳрири), 2012 йил 2 май.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 2022 йил 28 январдаги ПФ -60 сонли Фармонининг 1-илоvasи.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.
4. Бакиева И.А., Мухторова У.К., Файзиев Ш.Ш.. Кичик бизнес субъектларининг экспорт салоҳиятини оширишда инновацион маркетингдан самарали фойдаланиш: Монография // Т.: “Tamaddun” нашриёти 2017 й., 116 бет.



ДАВЛАТ ҚАРЗЛАРИНИ ВУЖУДГА КЕЛИШИНИНГ ИҚТИСОДИЁТ УЧУН ТАЪСИРИ

«Молия» кафедраси доц. Имомов Ҳ.Ҳ.
Жумаев А.Н.

МГФ-10 гуруҳ магистри

Аннотация: Мазкур мақолада давлат қарзларини вужудга келишининг иқтисодиёт учун таъсири натижасида юзага келаётган катта иқтисодий ва ижтимоий муаммолар келтирилган.

Калит сўзлар: иқтисодиёт, инфратузилма, инсон капитали, давлат бюджети, мобилизация.

Бугунги кунда, бутун дунё бўйлаб, етарлича бўлмаган ёки етарлича ишламайдиган инфратузилмани юзага келтираётган катта иқтисодий ва ижтимоий муаммолар ҳукуматлар ва бизнес томонидан ечилишни талаб этмоқда. Транспорт тизими, электр ва сув тармоғини ўз ичига олган зарур инфратузилмасиз иқтисодиётнинг ўсиш салоҳияти қондирилмайди, бундан иқтисодий ҳамда инсон капиталининг ривожланиши зарар кўради. Яна шуни таъкидлаш ҳам жоизки, инфратузилмага кўпроқ инвестиция киритиш зарурати, кўпгина давлатларда юқори қарздорлик юзага келганда ёки ресурсларларга бўлган талаб ошган пайтда рўй беради.

Ижтимоий-иқтисодий ривожланишда инфратузилманинг ролини нақадар муҳимлигини англаган ҳолда, Ўзбекистон ўз мустақиллигининг дастлабки йилларидан бошлаб, ушбу тармоқ учун сезиларли маблағлар сарфлади. Шу сабабдан ҳам, инфратузилма бугунги кунга келиб, бюджет маблағлари, бюджетдан ташқари давлат фондлари ҳамда давлат томонидан кафиликка олинган ташқи қарзлар йўналтириладиган устувор тармоқлардан бири бўлиб қолмоқда. Натижада, мамлакатда замонавий йўл транспорти тармоғи ва ҳаво коммуникация тизими яратилди, электр таъминоти тизими ривожланмоқда ҳамда инфратузилманинг бошқа тармоқ ва хизматлари модернизация қилинмоқда. Инфратузилмани ривожлантириш ва аҳоли фаровонлигини ошириш борасида кўплаб давлат дастурлари ишлаб чиқилиб, ҳаётга татбиқ этилмоқда. Биргина, ижтимоий соҳа муассасаларининг молиявий таъминланганлигини янада мустаҳкамлаш ва давлат бюджети харажатларининг камида 54 %ини ижтимоий эҳтиёжларга йўналтирган ҳолда аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш самардорлигини ошириш, аҳолини ичимлик сув ва канализация хизмати билан таъминлашни, жумладан қуйидагилар ҳисобига яхшилаш, Андижон, Бухоро, Марғилон, Самарқанд, Фарғона ва бошқа шаҳарларда халқаро молия институтларининг кредитларини жалб этган ҳолда сув таъминоти ва канализация хизматини яхшилаш лойиҳаларини амалга ошириш, минтақалараро сув ўтказгич иншоотларини қуриш ва реконструкция қилиш, Республика минтақалари аҳолисини электр энергияси билан таъминлашни яхшилаш, Республика минтақалари аҳолисини газ билан барқарор таъминлаш, туман марказида коммунал дренаж ишини яхшилаш, 2017-2021 йиллар даврида республиканинг йирик шаҳарларида иссиқлик таъминоти тизимини ривожлантириш ва модернизация қилиш, замонавий йўллар ва муҳандислик-коммуникация инфратузилмасини ривожлантириш, транспорт инфратузилмасини ривожлантириш ва бошқа кўплаб тадбирлар кўзда тутилган.

Кўп вақтлар давомида инфратузилмани ҳукумат харажатларини ҳамда давлат қарзини оширмасдан туриб ривожлантириш нинг асосий афзаллиги деб қаралган эди. Бироқ, келадиган наф тушунчаси кейинги йилларда сезиларли даражада ўзгарди. Шу нарса аён бўлиб қолдики, амалда лойиҳалар бюджет учун нейтрал эмас – масалан, агар шартномада хусусий ижрочи хизматлари учун тўлов шартнома муддатлари ичида давлат томонидан амалга оширилиши назарда тутилган бўлса, бу нарса давлат қарзининг бевосита ўсишига олиб келади. Инфратузилмадаги хусусий капиталнинг мобилизация қилиниши имконияти, ҳатто бугунги кунда ҳам асосий сабаби бўлиб қолмоқда. Ушбу моделда бозор рағбатлантиришининг мавжудлиги ҳам шахсий, ҳам давлат маблағларидан янада самарали фойдаланиш имкониятини беради.

Кўп вақтлар давомида инфратузилмани ҳукумат харажатларини ҳамда давлат қарзини оширмасдан туриб ривожлантириш, мамлакатни молиявий барқарорлигининг асосий



афзаллиги деб қаралган эди. Бироқ, мамлакат инфратузилмасидан келадиган наф тушунчаси кейинги йилларда сезиларли даражада ўзгарди. Шу нарса аён бўлиб қолдики, инфратузилма лойиҳалари бюджет учун нейтрал эмас – масалан, агар шартномада хусусий ижрочи хизматлари учун тўлов шартнома муддатлари ичида давлат томонидан амалга оширилиши назарда тутилган бўлса, бу нарса давлат қарзининг бевосита ўсишига олиб келади. Инфратузилмадаги хусусий капиталнинг мобилизация қилиниши имконияти, ҳатто бугунги кунда ҳам, долзарб соҳага айланишнинг асосий сабаби бўлиб қолмоқда. Ушбу моделда бозор рағбатлантиришининг мавжудлиги ҳам шахсий, ҳам давлат маблағларидан янада самарали фойдаланиш имкониятини беради.

Хукумат харажатлари ва даромадлари устидан назоратнинг сусайиши билан боғлиқ хавф. Таъкидлаб ўтилганидек, инфратузилма лойиҳалари маълум бир нуқтаи назардан давлат мажбуриятлари қиймати ва давлат қарзларининг ошиб боришига олиб келади. Бундай лойиҳаларнинг молиявий ва маъмурий мустақиллиги, тегишли бюджет шароитлари ва уларнинг тўлови давлат молиявий режалаштириши, назорати ва ҳисоботи доирасидан ташқарида бўлиб, бу давлат молиясини бошқариш сифатига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Давлат томонидан олинаётган қарзлар бу давлат харажатларини молиялаштириш учун зарур бўлган пул маблағларини молия бозорларидан қарз олиш йўли билан жалб қилишдаги давлат фаолиятидир. Давлат олаётган қарзлари — давлат номидан қарз олишни амалга ошириш ваколатини олган давлат органларининг қарз мажбуриятлари ҳужжатлари билан расмийлаштирилади, улар давлатнинг қарздорлик қимматли қоғозлари бўлади ва бозорда эркин айланиши мумкин бўлади. Давлат қарздорликлари иккита вазифани бажаради: давлат ғазнасига пул маблағларини жалб этиш ва иқтисодий ривожланишни рағбатлантиришдир.

Давлатнинг қарзларни олиши жисмоний ва юридик шахслар, хорижий давлатлар, халқаро молиявий ташкилотлардан жалб қилинадиган заём ва кредитларни олишдан иборат бўлиб, улар бўйича қарз олувчи ёки бошқа қарз олганларнинг қарзларни қайтариш бўйича кафолатчи сифатида хукуматнинг қарз мажбуриятлари вужудга келади.

Америкалик иқтисодчи олим, Дидвуд Гайгернинг фикрича, «қарз ҳисобига тақчилликни молиялаштириш иқтисодиётга қуйидагича таъсир кўрсатади: пул массасини қисқартиради ва фоиз ставкаси даражасини кўтаради, шунга боғлиқ ҳолда бир томондан хусусий инвестициялар даражасини пасайишини келтириб чиқаради(сиқиб чиқариш омили), ташқи савдо балансини ёмонлаштиради, бошқа томондан инфляция босимини пасайтиради, миллий валюта курсини кўтаради, сақлаб қўйилган маблағларни ишлатади»¹.

Давлат томонидан ички маблағларни жалб қилиш натижасида вужудга келган мажбуриятларининг йиғиндисига давлат ички қарзлари дейилади. Давлатнинг ички қарзларни олиши жисмоний ва юридик шахслар, хорижий давлатлар, халқаро молиявий ташкилотлардан жалб қилинадиган заём ва кредитларни олишдан иборат бўлиб, улар бўйича қарз олувчи ёки бошқа қарз олганларнинг қарзларни қайтариш бўйича кафолатчи сифатида хукуматнинг ўз миллий валютасида ифодаланган қарз мажбуриятлари пайдо бўлади.

Давлат ташқи қарзлари дейилганда давлат томонидан хориждан маблағ жалб қилиш натижасида вужудга келган мажбуриятларининг йиғиндиси тушунилади. Давлатнинг ташқи қарзларни олиши жисмоний ва юридик шахслар, хорижий давлатлар, халқаро молиявий ташкилотлардан жалб қилинадиган заём ва кредитларни олишдан иборат бўлиб, улар бўйича қарз олувчи ёки бошқа қарз олганларнинг қарзларни қайтариш бўйича кафолатчи сифатида хукуматнинг хорижий валютада ифодаланган қарз мажбуриятлари вужудга келади.

Давлатнинг қарзлари кўпайган ҳолларда давлат бюджети камомадини молиялаштириш мақсадида давлат қарз олувчи сифатида давлат қарзларини жойлаштириш жараёнини амалга оширади. Давлат хазина мажбуриятларини чиқариш, молия бозорларида давлат қимматли қоғозларини жойлаштириш, давлат заёмларини чиқариш ва сотиш йўли билан банкларнинг, аҳолининг ва бошқа молия-кредит институтларининг пул маблағларини йиғади ва уларни давлат қарзи ва бюджет камомадини қоплашга сарфлайди. Давлат ўз қарзидан воз кечиши ҳам мумкин.

1 Боголиб Т. М. «Доходы бюджета в системе финансового регулирования», научный журнал «Europeansciencereview», выпуск № 5-6 / 2014



ЗАМОНАВИЙ ШАРОИТЛАРДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ТЕЖАМКОРЛИККА ЭРИШИШНИНГ ЗАРУРАТИ

Шавкат Болтаев,
БухДУ мустақил изланувчиси

Аннотация. Мазкур маъруза тезисида бугунги замонавий шароитларда хизмат кўрсатиш соҳасининг мамлакат миллий иқтисодиётидаги аҳамияти ёритилган. Хизмат кўрсатиш соҳасида тежамкорликка эришишнинг объектив зарурати тадқиқ этилган.

Калит сўзлар. глобаллашув, интеграция, хизматлар соҳаси, хизмат кўрсатиш, тежамкорлик, самарадорлик.

Хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиб, тараққий этиши ташкилий жиҳатдан оптимал ва хизматлар бозори конъюнктурасига нисбатан эгилувчан бўлса, хизмат кўрсатиш сифати ва самарадорлиги шунчалик юқори бўлади.

Бугунги замонавий шароитларда хизматлар соҳасининг мамлакатимиз иқтисодиётидаги улушини кўпайтириш, жойларда хизматлар соҳасидаги мавжуд имкониятларни тўлиқ ишга солиш, хизматлар турларини кенгайтириш ва сифатини ошириш бўйича ўз ечимини кутаётган муаммоли масалаларни ҳал қилиш, мазкур йўналишда тадбиркорлик субъектларини янада қўллаб-қувватлаш, уларнинг ғоя ва ташаббусларини рағбатлантириш мақсадида тизимли ислохотлар изчиллик билан амалга оширилмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармонида хизматлар соҳасининг жозибадорлигини ошириш мақсадида соҳадаги тадбиркорлик субъектларига қўшимча имтиёзлар тақдим этилишини таъминлаш вазифаси белгиланган [1].

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 майдаги “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5113-сон қарорида иқтисодий ўсишни таъминлашда хизматлар соҳасини муҳим драйверга айлантириш ва 2023 йилга қадар хизматлар ҳажмини икки бараварга ошириш, аҳолига тайёр бизнес режалар ва лойиҳалар тақдим этиш, уларни касбга ўқитишдан тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйишгача бўлган босқичларни қамраб олувчи «комплекс хизматлар» кўрсатишни ташкил этиш, хизматлар соҳасида ортиқча бюрократик тўсиқларни бартараф этиш, ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб хизматлар турларини кенгайтириш, ҳудудларда, айниқса қишлоқ жойларда транспорт, молиявий, шунингдек, банк, туризм ҳамда савдо хизматлари қамровини кенгайтириш каби устувор вазифалар белгиланган [2].

Жаҳондаги аксарият мамлакатларда кейинги йилларда хизмат кўрсатиш соҳаси давлатнинг асосий макроиқтисодий кўрсаткичларини белгилаб бермоқда. Саноат ва қишлоқ хўжалигида янги технологияларнинг жорий қилиниши ҳамда ишлаб чиқаришнинг автоматлаштирилиши хизматлар соҳасини аҳоли самарали бандлигини таъминлашнинг асосий манбасига айлантирди.

Хизматлар соҳасининг ривожланиши универсал жараён бўлиб, мазкур соҳанинг ривожланиши охириги ўн йилликларда қуйидаги тенденциялар уйғунлиги билан белгиланади.

- Ижтимоий ҳаёт ва иқтисодиётнинг рақамли трансформацияси;
- Барқарор ривожланиш, глобаллашув жараёнлари;
- Хизмат кўрсатиш тенденциялари ва гибрид маҳсулотнинг пайдо бўлиши;
- Ҳамкорлик иқтисодиёти ва биргаликдаги истеъмол иқтисодиётининг ривожланиши.

Дунё миқёсида хизмат кўрсатиш соҳасига эҳтиёж йилдан-йилга, кундан-кунга ортиб бормоқда. Биринчидан, аҳолининг даромадлари кўпайиб, фаровонлиги ошиб, яшаш даражаси ва сифатининг кўтарилиб бораётганлиги кўпгина янгидан-янги хизматларни талаб қилмоқда.

Бугунги замонавий шароитларда хизмат кўрсатиш соҳасида тежамкорликка эришиш ва самарадорликни ошириш йўллари ишлаб чиқиш ҳам энг устувор вазифалар даражасига кўтарилган. Чунки, дунё мамлакатлари иқтисодиётида, айниқса ривожланган мамлакатларда хизмат кўрсатиш соҳаси етакчи тармоқлардан бири бўлиб ҳисобланади. Шу туфайли инновацион иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш соҳасида моддий ва меҳнат



ресурслари тежамкорлиги ҳамда самарадорлигини ошириш, шунингдек, унинг истиқболли йўналишларини белгилаб олишга алоҳида аҳамият берилмоқда.

Хизмат кўрсатиш соҳасида тежамкорликка эришиш орқали унинг фаолияти самарадорлигини ошириш мумкин бўлади. Тежамкорликка эришишнинг муҳим йўлларида бири ички имкониятларни ишга солиш орқали эришилади. Ички имкониятларни ишга солишнинг ўзига хос йўналишлари мавжуд бўлиб, бу моддий, молиявий ресурслар ва вақт омиллари билан боғлиқ. Бугунги тежамкорлик масаласи деярли аниқ. Шу туфайли ундан максимал фойдаланишни тақозо қилади. Акс ҳолда ўтган вақтни қайтариб бўлмайди. Шу туфайли бугунги имкониятни бой бермасдан эртанги натижага эришиш учун қандай ишларни амалга ошириш лозимлигини аниқлаш ва ушбу масаланинг истиқболлини белгилаб олиш ўта муҳимдир. Бу жараён аксарият ҳолда ушбу масалага жиддий эътибор бериш орқали эришилади. Шу туфайли ички имкониятлар эвазига тежамкорлик масаласи соҳа ходимларининг доимий эътиборида бўлишликни тақозо қилади.

Хулоса ўрнида таъкидлаганда, хизмат кўрсатиш корхоналарида иқтисодий тежамкорликка эришиш соҳанинг кўзланган натижаларига эришини таъминлаб, иқтисодиётнинг стратегик тармоғи ҳисобланган хизматлар соҳаси рақобатбардошлигини таъминлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 11 майдаги “Хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5113-сон қарори.
3. Болтаев Ш. Инновацион иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш соҳасида тежамкорликка эришиш ва самарадорликни ошириш масалалари// Логистика ва иқтисодиёт. №5 2021 й.



КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ҲОЛАТИ

Турғунов Саиджон Зокиржон ўғли
ТДИУ, МБА-10 гуруҳ магистранти

АННОТАЦИЯ: Бугунги кунда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик жаҳон мамлакатлари тажрибасида ўзининг юксак натижа ва муваффақиятлари билан мустаҳкам ўрин эгаллаган бўлиб, аксарият халқларда унинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши 60-70 фоизни ташкил этмоқда. Мазкур мақолада кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларининг мамлакат иқтисодиётидаги ўрни ҳақида батафсил ёритилиб берган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектлари, ЯИМ, кичик бизнеснинг мамлакат иқтисодиётидаги ўрни.

Кичик бизнеснинг ривожланиши иқтисодиётдаги самарали рақобат муҳити учун қулай шарт-шароитларни яратиш, истеъмол секторини кенгайтириш орқали талабни рағбатлантириш, истеъмол бозорини товар ва хизматлар билан тўлдириш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, бюджет тушумларини кенгайтиришга хизмат қилмоқда. Шунга қўра, кўплаб ривожланган давлатлар кичик бизнес фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлашга интиломоқда[1].

Республикада саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда кичик бизнеснинг ҳиссасини таҳлил этадиган бўлсак, ҳисобот даврида кичик тадбиркорлик субъектлари томонидан 23,6 трлн. сўмлик саноат маҳсулоти ишлаб чиқарилиб, унинг умумий ишлаб чиқариш ҳажмидаги улуши 28,7 % ни ташкил этди. Худудлар кесимида кичик бизнеснинг саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришдаги энг юқори улуши Наманган вилоятида (жами саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришдаги улуши 60,3%), Тошкент шаҳрида (51,0%), Жиззах (53,6%), Самарқанд (51,3%), Сурхондарё (40,5%), Фарғона (36,4%) вилоятларида кузатилди. Республикада худудлари кесимида саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмида кичик бизнес субъектларининг улуши таҳлили шуни кўрсатдики, Навоий (8,9 %), Андижон (19,5 %) ва Тошкент (20,8 %) вилоятларида ҳамда Қорақалпоғистон Республикасида (19,5 %) саноат ишлаб чиқариш ҳажмларидаги кичик бизнес субъектлари улушининг камлигини, мазкур худудларда жойлашган йирик саноат корхоналарининг ишлаб чиқариш ҳажмлари юқори эканлиги билан изоҳлаш мумкин. Бугунги кунда республикада 73,7 мингта саноат корхоналари фаолият кўрсатмоқда, шундан 15,3 мингтаси (фаолият юритаётган корхоналар умумий сонининг 20,8 % и) Тошкент шаҳрига, 7,9 мингтаси (10,7 %) Фарғона вилоятига, 7,9 мингтаси (10,8 %) Тошкент вилоятига, 6,9 мингтаси (9,3 %) Андижон вилоятига, 6,3 мингтаси (8,5 %) Самарқанд вилоятига, 5,7 мингтаси (7,8 %) Наманган вилоятига тўғри келмоқда. Кичик бизнес ва тадбиркорликнинг ЯИМдаги улуши 45,5 % ни ташкил қилди (2019 йилнинг январь-мартда 45,8 %). ЯИМ таркибида кичик тадбиркорлик улушининг пасайиши йирик корхоналар улушининг ошиши билан изоҳланади. Худудлар бўйича кичик тадбиркорликнинг ЯХМдаги улушининг энг кўп қисмини Жиззах (74,8 %), Самарқанд (68,9 %), Сурхондарё (67,4 %), Хоразм (65,9 %) ва Бухоро (65,1 %) вилоятлари ташкил этди. Навоий вилоятида ушбу кўрсаткич (20,9 %) энг паст бўлиб қолмоқда. Иқтисодиётни модернизациялаш даврида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ЯХМдаги улуши (83,8%) ташкил этиши, фаолият юритаётган кичик бизнес субъектлари сони (23,6%) ва асосий капиталга инвестицияларда кичик бизнеснинг ҳажми (25,4%)нинг ошишига ҳамда марказий банк томонидан урнатилган қайта молиялаштириш ставкаси (0,1%)нинг пасайишига эришилади. Кичик бизнес капитал такчиллиги шароитида кўп маблағ талаб этмайдиган хўжалик фаолияти сифатида ресурслар айланмасининг юқори суръатларини таъминлайди, иқтисодиётни модернизация қилиш, иқтисодий барқарорлик ва ресурслар чекланганлиги шароитида истеъмол бозорини шакллантириш ва уни тўлдириш муаммосини тез ҳамда тежамли тарзда ҳал этади. Кичик корхоналар истеъмол талабининг ўзгаришига дарҳол мослашади ва шу йул билан истеъмол бозоридаги зарурий мувозанатни таъминлаб беради. Глобаллашув жараёнлари бугунги кунда кичик бизнес ва тадбиркорликнинг улушини нафақат иқтисодиётнинг ўсиш суръатларини жадаллаштиришда, балки мамлакатимиз учун ниҳоятда муҳим бўлган бандлик ва аҳоли даромадларини ошириш масалаларини



хал этишда ҳам етакчи ўрин тутмоқда. Сўнги йилларда, республикада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланувчи корхоналар сони йил сайин ортиб бораётгани соҳанинг изчил ривожланаётганлигидан далолат беради. Бугунги кунда кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланувчи субъектлар экспорт салоҳиятидан фойдаланишни кенгайтиришда унинг экспорт фаолиятидаги иштирокини давлат томонидан рағбатлантириш муҳим ўрин тутади. Ҳозирги кунда мамлакатимизда экспорт қилувчи компанияларнинг экспорт фаолиятларини молиялаштиришнинг ягона манбаи банк кредитлари бўлиб қолмоқда. Молия институтлари томонидан савдо кредитлари билан бир қаторда айланма маблағларини тўлдириш (хом-ашё ва материаллар, бутловчи қисмлар ва экспорт фаолияти билан боғлиқ шу каби харидларни молиялаштириш) учун қисқа ва узоқ муддатли кредитлар ва кредит линиялари таклиф этилмоқда.

2021-2025 йиллар прогнози таҳлил этилганда кичик бизнес соҳасида яратилган ялпи маҳсулот ҳажмининг истикболдаги курсаткичлари прогнози кичик бизнес соҳасида яратилган ялпи маҳсулот ҳажми 2019 йилда 14325,5 млрд. сўмни ташкил этган бўлса, бу кўрсаткич 2025 йилга келиб 2 баробарга ўзгариши прогноз қилинмоқда. Мамлакат иқтисодиётининг барқарор тенденцияларда ҳаракатланиши бугунги кунда кичик бизнес ва тадбиркорлик билан шуғулланаётган, экспорт патенциали мавжуд бўлган корхоналар улушига тўғри келмоқда.

1-жадвал

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг иқтисодиёт тармоқларидаги асосий кўрсаткичлари ҳажми¹

Кўрсаткичлар	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022 (январь-март)
Саноат (млрд. сўм)	39643,5	50654,5	61367,8	87962,0	83344,2	103020,8	121719,2	24586,1
Қурилиш (млрд.сўм)	16954,0	19671,0	22469,4	37451,7	53960,9	63866,6	77762,0	18422,6
Бандлик (минг киши)	10170,4	10397,5	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10070,7	-
Экспорт (млн. АҚШ.дол)	3377,7	3139,2	2759,3	3810,8	4714,8	3100,9	3711,2	849,9
Импорт (млн. АҚШ.дол)	5523,1	5676,8	7511,9	10916,2	14972,2	10943,3	12389,0	3656,0
Савдо (млрд. сўм)	61972,3	78935,6	92973,0	114896,4	138920,7	164106,1	204787,4	45086,1
Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги (млрд. сўм)	101197,5	118011,4	152010,5	191759,2	219466,9	253238,2	307280,2	32487,0
Хизматлар (млрд.сўм)	47269,6	61346,2	69212,7	84433,4	103106,6	114052,7	144812,7	36044,3
Юк ташиш (млн.тонна)	472,8	538,6	548,8	611,7	641,0	638,9	678,9	104,6
Юк айланмаси (млн.тонна-км)	9225,1	10072,4	10444,4	11657,7	12152,3	12304,6	13108,1	2262,8
Йўловчи ташиш (млн.йўловчи)	4486,3	4866,5	5037,5	5242,6	5345,0	4904,8	5237,6	1270,8

Юқорида келтирилган 1-жадвални таҳлил қиладиган бўлсак, Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг иқтисодиёт тармоқларидаги асосий кўрсаткичлари ҳажми яъни саноатда 2021 йилда 121719,2 млрд.сўмни ташкил этган бўлса, 2022 йил январь-март ойлари ҳисобида 24586,1 млрд.сўмни ташкил этган. Экспортда 2021 йил ҳисобида 3711,2 млн.АҚШ долларларида ташкил этган бўлса, 2022 йил январь-март ойлари кўрсаткичлари бўйича 849,9 млн.АҚШ

1 www.stat.uz маълумотлари асосида муаллиф таҳлили



долларини ташкил этган. Импорт ҳажмида эса 2021 йил якунларида 12389,0 млн.АҚШ доллари ҳисобида бўлса, 2022 йил январь-март ойлари бўйича 3656,0 млн.АҚШ долларини ташкил этган [2].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги 2022 йил 28 январдаги ПФ -60 сонли Фармонининг 1-илоvasи.

2. www.stat.uz



MAMLAKATIMIZDA ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Abdusamatova Shaxodat Xojiakbar qizi¹,

Vafoqulova Gavharbegim To`lqin qizi²,

¹Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali
huzuridagi akademik litsey hodimi,

tel: +998933754215,

e-mail: abduamatovashahodat@gmail.com

²Al Xorazimiy nomidagi TATU Telekomunikatsiya
injineri yo`nalishi talabasi,

tel:+99894252206,

e-mail: Gagi2203@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada iqtisodiyotning eng rivojlanan sohalaridan biri bo`lgan elektron tijorat tizimlari haqida tushuncha va uning mamlakatimizdagi istiqbollari keltirilga.

Kalit so`zlar: elektron tijorat, bzor iqtisodiyori, rivojlanish tendentsiyalari, bozor munosabatlari.

Elektron bozor, raqamlashtirilgan jamiyat tushunchalari XXI asirning eng ommalashgan tushunchalaridan biri hisoblanadi, axborotlashgan jamiyatni bu tushunchalarsiz tasavvur qilish mushkul. Xususan zamonaviy iqtisodiyotning kelajak istiqbollarini elektron bozor, elektron tijorat, elektron hukumat, onlayn savdolar vaboshqa tushunchalarsiz tasavvur qilishning imkoni yo`q. Nafaqat xalqaro balki mamlakatimiz miqiyosida ham bu ko`rsatkichlar qanchalik jadal suratlar bilan o`sib borayotgani yaqin 10 yilklarda ko`zga tashlanmoqda.

O`zbekistonda elektron tijorat sanoati rivojlanishning dastlabki bosqichida. 2021-yil aprel holatiga ko`ra, 34 million aholisi bo`lgan mamlakatda internetdan foydalanuvchilar soni 22,6 million kishini tashkil etadi – 19,4 million mobil internet foydalanuvchisi va 3,2 million doimiy keng polosali internet foydalanuvchisi. Xalqaro ma`lumotlarni uzatish kanallarining o`tkazish qobiliyati 1200,0 Gbit/s ni tashkil qiladi. Mamlakat telekommunikatsiya infratuzilmasiga sarmoya kiritmoqda, biroq mobil internet bo`yicha 18,39 Mbit/s yuklab olish va 9,47 Mbit/s yuklash tezligi bilan 138 mamlakat ichida atigi 118-o`rinni egalladi. U 44,36 Mbit / s yuklab olish va 44,51 Mbit / s yuklash tezligi bilan qattiq keng polosali internet bo`yicha 174 mamlakat ichida 90-o`rinni egallaydi. Elektron tijoratni rivojlantirishga ko`maklashish uchun hukumat onlayn daromaddan atigi 2% soliq undiradi, an`anaviy biznes uchun esa 4%. O`zbekiston qonunlari dori vositalari va tibbiy buyumlarni onlayn sotishga ruxsat beradi hamda tovarlar va xizmatlar uchun to`lovning qonuniy tasdiqlanishi sifatida elektron cheklar va invoyslarga ruxsat beradi. O`zbekiston Markaziy banki 2019-yilda Visa bilan raqamli to`lovlar uchun infratuzilmani rivojlantirish bo`yicha o`zaro anglashuv memorandumini imzoladi va ko`plab banklar onlayn to`lovlarni qayta ishlashni osonlashtirish uchun elektron tijorat veb-saytlariga to`lov dasturlari va xizmatlarini taklif qilmoqda. IT-mutaxassislari sonini ko`paytirish maqsadida 2018-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida elektron tijorat bo`limi ochildi. 2020 va 2021-yillarda hukumat elektron tijorat o`shini rag`batlantirish uchun bir qator muhim qadamlarni qo`ydi: O`zbekiston Markaziy banki 2019-yilda Visa bilan raqamli to`lovlar uchun infratuzilmani rivojlantirish bo`yicha o`zaro anglashuv memorandumini imzoladi va ko`plab banklar onlayn to`lovlarni qayta ishlashni osonlashtirish uchun elektron tijorat veb-saytlariga to`lov dasturlari va xizmatlarini taklif qilmoqda. IT-mutaxassislari sonini ko`paytirish maqsadida 2018-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida elektron tijorat bo`limi ochildi. 2020 va 2021-yillarda hukumat elektron tijorat o`shini rag`batlantirish uchun bir qator muhim qadamlarni qo`ydi: O`zbekiston Markaziy banki 2019-yilda Visa bilan raqamli to`lovlar uchun infratuzilmani rivojlantirish bo`yicha o`zaro anglashuv memorandumini imzoladi va ko`plab banklar onlayn to`lovlarni qayta ishlashni osonlashtirish uchun elektron tijorat veb-saytlariga to`lov dasturlari va xizmatlarini taklif qilmoqda. IT-mutaxassislari sonini ko`paytirish maqsadida 2018-yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida elektron tijorat bo`limi ochildi. 2020 va 2021-yillarda hukumat elektron tijorat o`shini rag`batlantirish uchun bir qator muhim qadamlarni qo`ydi:

2020-yil oktabr oyida “Raqamli O`zbekiston – 2030” strategiyasining qabul qilinishi: Hukumat butun mamlakat bo`ylab qurilgan optik tolali aloqa tarmog`ining uzunligini hozirgi 41



000 kilometrdan (25 476 milya) 2030 yilgacha 250 000 kilometrga (155 343 milya) oshirishni rejalashtirmoqda; 2030 yilga borib yuqori tezlikdagi internet qamrovini hozirgi 67 foizdan 100 foizgacha oshirish; 2022 yilgacha keng polosali mobil aloqa tarmog‘i qamrovini joriy 78 foizdan 100 foizgacha kengaytirish; hamda axborot texnologiyalari yo‘nalishi bo‘yicha oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalariga qabul qilish uchun yillik kvotani 2030-yilga borib hozirgi 7 mingdan 20 ming nafarga oshirish. O‘zbekiston 2021-2022 yillarda raqamli infratuzilmani rivojlantirishga 2,5 milliard dollar sarmoya kiritishni rejalashtirayotganini ma‘lum qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori 02.06.2016 yildagi 185-son.
2. Steven Spielber “Elektron tijoratdagi sun‘iy intellekt: bu tez rivojlanayotgan texnologiya onlayn do‘konni qanday o‘zgartiradi”.
3. Danny Asling “19 Powerful Ways To Use Artificial Intelligence In eCommerce”



О'ЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЙОТИ: ИСТИҚБОЛЛАР ВА ХАВФЛАР.

Galiyev Tohir Fazliddinovich

GulDU Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti,
iqtisodiyot yo'nalishi talabasi
+998994747416
tohirgaliyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyoti va bizni kutayotgan istiqbollar va xavflar bilan tanishamiz. O'zbekistondagi iqtisodiyotning o'sishi va o'tgan yillar bilan taqqoslaymiz.

Kalit so'zlar: O'zbekiston iqtisodiyoti, raqobat, soliqlar, o'sish, iqtisodiy istiqbollar, iqtisodiy xavflar, tadbirkorlar;

O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'atlari sekin, ammo ijobiy bo'lib qolmoqda. Islohotlar ishlab chiqarishdagi cheklovchi omillarni (to'siqlarni) bartaraf etish va yuqori o'sish potensialiga ega tarmoqlarni liberallashtirishga yordam beradi. Meva-sabzavotchilik, turizm, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik va kimyo sanoati shunday tarmoqlar qatoriga kiradi. Biznesda soliq yukining sezilarli darajada kamaytirilishi zikr etilgan jarayonlarni yanada qo'llab-quvvatlaydi. 2019–2020 yillarda narx-navoning liberallashuvi va oylik ish haqi oshirilishi sababli inflatsiya yuqori darajada saqlanib qoladi. Biroq 2021 yilga borib u pasayishi kutilmoqda. Jahon banki prognozlariga ko'ra, tashqi savdo balansining salbiy saldosi yuqorilgicha qoladi. Sababi, O'zbekiston iqtisodiyoti kelgusi bir necha yilda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun ko'plab mashina va uskunalarni import qilishni davom ettiradi.

2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, jumladan, «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» Davlat dasturida ham raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etish iqtisodiy faoliyatdagi eng muhim vazifa etib belgilangan.

Savol tug'iladi: Iqtisodiyot qanaqa xususiyatlarga ega bo'lishi kerak-ki, u raqobatbardosh hisoblansa? Bu masalaga oydinlik kiritadigan maqolalar mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarida deyarli chop etilmagan. Shuning uchun bu borada so'z yuritishdan oldin ushbu savolga javob berishga harakat qilib ko'raylik.

«Raqobatbardosh iqtisodiyot» deganda maqbul sur'atlar va mutanosiblik bilan o'sib boradigan milliy iqtisodiyot, unda xususiy mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan kerakli sharoitlar, aholi turmush darajasini doimiy yaxshilanib borishiga xizmat qiladigan bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlab chiqilgan xo'jalik mexanizmi, ishlab chiqarish resurslari erkin harakatlanadigan va bozor mexanizmi yordamida tartibga solinadigan ochiq iqtisodiy tizim tushuniladi.

Jahonda moliyaviy iqtisodiy inqiroz asoratlari to'laligicha bartaraf etilmagan bir sharoitda bunday oliy maqsadga erishish uchun aynan bizning mamlakatimizda asosli imkoniyatlar mavjud. Faqat avval bir narsani aniqlab olishimiz lozim: jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, jumladan, uning ikkinchi bosqichi (2014–2015 yillar) O'zbekiston iqtisodiyotiga qay darajada o'z ta'sirini o'tkazdi, uning asoratlarini bartaraf etish uchun qaysi chora-tadbirlarni va qanday ketma-ketlikda amalga oshirish lozim?

Mamlakatimiz iqtisodiyoti jaxon xo'jaligining tarkibiy qismi ekanligi va boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'langanligini tushunish uchun iqtisodchi-olim bo'lish shart emas.

Global moliyaviy inqiroz jahon bozorida shakllangan muvozanatni buzdi, uning kon'yunkturasida yuz bergan o'zgarishlar O'zbekiston eksport qiladigan strategik tovarlarga bo'lgan talab hajmini kamaytirib, ularning narxlari tushib ketishiga olib keldi. Bunga tabiiy gaz, yengil avtomobillar, paxta tolasi va mineral o'g'itlarni misol keltirish mumkin. Natijada, mamlakatimizga kelayotgan valyuta tushumlari kamayib, oltin-valyuta zaxirasining qisqarishi yuz berdi.

Mehnat muhojirlari tomonidan jo'natiladigan pul o'tkazmalarining kamayishi ichki bozor



sig' imining qisqarishi, xalq iste`moli mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarining katta qismida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining pasayib ketishiga, tomorqalarda ishlab chiqariladigan qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdorining keskin kamayishiga olib keldi. Pirovard natijada, mamlakatimiz iqtisodiyotida bir qator murakkab nomutanobliklar vujudga keldi, bu esa iqtisodiy-ijtimoiy masalalar yechimini murakkablashtirmoqda.

Foydanilgan adabiyotlar:

<https://mineconomy.uz/uz/node/2000>

<https://kun.uz/uz/news/2019/08/31/ozbekiston-iqtisodiyoti-istiqbollar-va-xavflar>

https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_iqtisodiyoti

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 9-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000